



JAMSHID ELOV

TIBBIYOT MUASSASALARI XODIMLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI  
OSHIRISH JARAYONLARINING AXBOROT  
MODELLARI VA TIZIMLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANТИRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

JAMSHID ELOV

**TIBBIYOT MUASSASALARI  
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH  
VA MALAKASINI OSHIRISH  
JARAYONLARINING AXBOROT  
MODELLARI VA TIZIMLARI**

*(Monografiya)*

**FAN VA TA'LIM NASHRIYOTI  
TOSHKENT – 2023**

**UDK 004.41:61  
KBK 32.973-018**

**E 48**

**Jamshid Elov**

Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarining axborot modellari va tizimlari: Monografiya. J.Elov. -T.: „Fan va ta’lim” nashriyoti, 2023-yil, 120 bet.

Monografiyada axborot tizimlari va relyatsion ma'lumotlar bazasini loyihalash, strukturaviy va funksional modellashtirish, axborot jarayonlarini tafsiflash va biznes jarayonlarni modellashtirish, MVC texnologiyasi asosida axborot tizimlarini qurish usullari orqali axborot tizimini yaratishda kechadigan BPMN jarayonlarni ishlab chiqish, relyatsion model asosida tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kompleks axborot tizimining ma'lumotlar bazasini yaratish va jadvallar atributlari o'rtasida munosabatlar ishlab chiqish, axborot tizimining tuzilmasi va arxitekturasini yaratish, axborot tizimning ma'lumotlar tuzilmasi va axborot modelini yaratish, axborot tizimining arxitekturasi va biznes-logikasini qurishda IDEF (Integrated Definition) modellashtirish metodologiyasi asosida tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kompleks axborot tizimining funksional modellari hamda ma'lumotlar tuzilmasini ishlab chiqish va kompleks axborot tizimini yaratish kabi amallar ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu monografiya axborot tizimlarini loyihalash va modellashtirish, axborot tizimida kechadigan bizness jarayonlarni tashkil etish, axborot tizimi ma'lumotlar bazasini yaratish, zamonaviy dasturlash texnologiyalari asosida o'zaro integratsiyalashgan axborot tizimlarini yaratish sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar uchun tavsija etiladi hamda mazkur sohada oly ta'lim muassasalari talabalari va magistrlarining keng doirasi ham foydalanishi mumkin.

**Taqrizehilar:**

**H.N.Zaynidinov** – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU “Sun’iy intellekt” kafedrasи mudiri, t.f.d., professor,

**Q.S.Raxmanov** – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” kafedrasи mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent

**ISBN 978-9943-8655-8-7**

**© Elov Jamshid, 2023**

**© “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2023**

## KIRISH

Jahonda axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ixtiyoriy sohani avtomatlashtirish va ish faoliyatini optimallashtirish jarayonlari jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tarmoqda masofadan turib ma'lumot olish va boshqaruvni tashkil etish yuqori boshqaruv natijalariga erishishga xizmat qilmoqda. Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlariga axborot tizimlarini joriy qilish tibbiyot sohasidagi malaka oshirish jarayonlarini avtomatlashtirishga olib keladi. Ushbu sohada AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Daniya, Shvesiya, Islandiya hamda O'zbekistonda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda turli ta'lif sohalarida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish axborot tizimlarini ishlab chiqish hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lif jarayonlarida qo'llaniladigan axborot tizimlari biznes jarayonlarining BPMN (Business Process Model and Notation) metodologiyasi, IDEF (Integrated Definition) murakkab axborot tizimlarini modellashtirish metodologiyasi, relyatsion algebra asosida shakllantiriladigan ERD (Entity-Relationship Diagrams) modellari va algoritmlari asosida yaratish eng asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda hozirgi kunda axborot tizimlarini loyihalashtirish, modellashtirish hamda yaratish va joriy qilish jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarining axborot modellari va tizimlarini ishlab chiqish hamda tibbiyot ta'lilda yuqori sifatni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda tibbiyot ta'lmini modernizatsiya qilish, ushbu sohaga xalqaro ta'lif standartlarini joriy etish, aholi salomatligini muhofaza qilishning dolzarb muammolari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, ta'lif olayotgan yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning samarali tizimini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldag'i PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarida tibbiyot sohasida zamонавиу ахборот технологияларини qo‘llashдаги асосиу vazifalar belgilab o‘tilgan. Jumladan, 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasida<sup>1</sup> quyidagi vazifalar belgilangan:

- tibbiyot kadrlarini tayyorlash va uzuksiz kasbiy ta’lim jarayonlariga o‘qitishning kredit-modul tizimini joriy etish;
- tibbiyot kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimining markazlashtirilishiga barham berish, ularning uzuksiz kasbiy ta’lim bilan to‘liq qamrab olinishini ta’minalash;
- tibbiyot kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qitish jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobga olishni ta’minalash;
- kadrlarni tayyorlash, ta’lim, ilm-fan va amaliyotni integratsiya qilishning uzuksizligini ta’minalash maqsadida tibbiyot va farmasevtika muassasalarining klinikalari, o‘quv va o‘quvishlab chiqarish bazalarini rivojlantirish belgilab o‘tilgan [5].

Monografiyaning birinchi bobida tibbiyot muassasalarida axborot tizimlarini joriy qilishning nazariy tahlili olib borilgan, jumladan, tibbiyot sohasining biznes jarayonlariga tadbiq etilgan axborot tizimlarining o‘rni va tahlili olib borilgan, tibbiyot axborot tizimlarining xalqaro miqyosidagi rivojlanish tendensiyasi ko‘rib o‘tilgan hamda tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimlarini ishlab chiqishda qo‘yilgan асосиу талаблар aniqlangan.

Monografiyaning ikkinchi bobida relyatsion model asosida tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimi, elektron yo‘llanma olish, xodimlar bo‘limi ish faoliyatini boshqarish va tinglovchilar bilimlarini baholash axborot tizimlarining ma’lumotlar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni

bazasi yaratilgan va jadvallari ishlab chiqilgan hamda jadvallar atributlari o'rtasida munosabatlar o'rnatilgan.

Monografiyaning uchinchi bobida tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimining tuzilmasi va arxitekturasini yaratish, tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimining ma'lumotlar tuzilmasi va axborot modelini yaratish, xodimlar bo'limi faoliyatini boshqarish axborot tizimining ma'lumotlar tuzilmasi va axborot modelini yaratish, tinglovchilar bilimlarini baholash axborot tizimining ma'lumotlar tuzilmasi va axborot modelini yaratish kabi ishlar bajarilgan.

Monografiyaning to'rtinchi bobi tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish, elektron yo'llanma olish, xodimlar bo'limi ish faoliyatini boshqarish hamda tinglovchilar bilimlarini baholash axborot tizimlari yaratish va jarayonlarning BPMN modelini qurishga qaratilgan. Natijada malaka oshirish o'quv jarayonlarini tashkil etish, monitoringini yuritish va tinglovchilar bilimlarini adaptiv baholashga ixtisoslashgan hamda qaror qabul qilishga ko'maklashuvchi ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish va taqdim etish kompleks axborot tizimi yaratilgan.

## **I BOB. TIBBIYOT SOHASIGA AXBOROT TIZIMLARINI JORIY QILISHNING NAZARIY TAHLILI**

### **1.1. Tibbiyot sohasiga tadbiq etilgan axborot tizimlarining o'rni va tahlili**

Hozirgi kunga kelib axborot texnologiyalari tibbiyot sohasiga jadal tarzda kirib kelmoqda. Xalqaro miqyosda tibbiyot sohasida elektron tibbiyot tushunchasi paydo bo'ldi. Tibbiyot muassasalarida axborot tizimlarini joriy qilish ushbu sohada boshqaruvni osonlashtiradi hamda shaffoflikni ta'minlab beradi [5,48;310-320-b.,49; 169-b., 52;100-b.].

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi (2003y.), "Elektron hujjat aylanish to'g'risida"gi (2004y.), "Elektron hukumat to'g'risida"gi (2015y.) qonunlari axborot tizimlarini joriy qilish asosida axborot olish huquqlari belgilab berilgan. Jumladan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasida axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanimishini ta'minlash belgilangan [2].

Axborot tizimi deganda oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun axborotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish metodlari va vositalari yig'indisi tushuniladi. Axborotlashtirish yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lган ehtiyojini qondiradi [8;178-b.,62;9-10-b.]. Tizim, aslida, bir vaqtning o'zida yagona obyekt hamda maqsadga erishish uchun to'plangan elementlar yig'indisi sifatida qaraladi. Axborot tizimlari bir-biridan tarkibi va qanday maqsadda qo'llanilishi bilan ajratiladi [62; 9-b.]. Tizim uchun murakkablik, bo'linishlik, yaxlitlik, elementlarning ko'p turliligi va ular tabiatining xilma-xilligi, tarkiblashtirilganligi kabi xususiyatlar xosdir [62;10-b.].

Tizimning murakkabligi - unga kiruvchi tarkibiy qismlarning ko'pligi, ularning tarkibiy o'zaro hamkorligi, ishlab chiqarish va tashqi aloqalarning murakkabligiga hamda dinamikligiga bog'liq [62;10-15-b.].

Tibbiyot sohasida axborotlashtirish - bu, kompyuterlashtirish yordamida tibbiyot sohasining ish faoliyatini avtomatlashtirish ma'lumotlarni almashish, tahlil qilish va boshqarishdan iborat bo'ladи [29;113-114-b].

Monografiyada tibbiyot axborot tizimlarini yaratishda izlanishlar olib borgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi. Ushbu tibbiyot axborot tizimlarini yaratishda olimlar o'z ishlarida tibbiyot axborot tizimini yaratish bo'yicha bir nechta yondashuvlar va modellarni ishlab chiqishgan. Quyida bir nechta olimlarning ilmiy tadqiqotlarini ko'rib o'tamiz [84;1-4-b.,85-120,86;332-b.].

O.S.Beznosning "Razrabotka metodicheskogo apparata dlya sozdaniya meditsinskoy informatsionnoy sistemi lechebnogo uchrejdeniya" nomli ilmiy tadqiqot ishi o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilarni qamrab olganligida ko'rildi [30;4-10-b.]:

- tibbiyot axborot tizimi predmet sohasining analitik modellari ishlab chiqilgan;
- tibbiyot axborot tizimlarida ma'lumotlar geterogen iyerarxik grafiklarga yo'naltirilgan tarzda taqdim etilgan;
- tibbiyot axborot tizimlarining tizimli tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish orqali, turli xil tibbiyot muassasalarida bir turga mansub ma'lumotlarni bo'lish orqali tahlil qilib, axborot tizimi ishlab chiqilgan;
- tibbiyot axborot tizimining axborot tuzilmalari ma'lumotlar bazasini normallashtirish bo'yicha metodologiya ishlab chiqilgan;
- foydalanuvchilarga ma'lumotlarni qayta ishlashga bo'lgan talablarini aks ettirish metodologiyasi taklif etilgan;
- foydalanuvchi talablari modeli ishlab chiqilgan.

Ushbu tizimda faqat bemorlar bilan ishslash ko'zda tutilgan. Axborot modeli quyidagilarga asoslangan: bemorni qabul qilish, diagnostika qilish, davolash, reabilitatsiya qilish va monitoring o'tkazish.

Ushbu ishda asosan, tibbiyot axborot tizimini yaratishda matematik model hamda relyatsion va obyektiv yondashuvlarning qiyosiy tahlili asosida dasturiy ta'minot yaratilgan. Lekin ushbu ishda ma'lumotlar ustida amallar bajarilganda ma'lumotlar bazasini

normallashtirishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ya'ni normallashtirishning barcha bosqichlarida ma'lumotlar tahlil qilinmagan hamda tibbiyot sohasida axborot tizimlarini yaratishda maxsus xalqaro standartlarda belgilab qo'yilgan mezonlar keltirib o'tilmagan. Bu tadqiqotda shifokorlar va ularning ilmiy-uslubiy ishlarining monitoringi ko'zda tutilmagan.

Monografiyada tahlil qilingan navbatdagi ilmiy ishda A.Ye.Mixeyevning "Issledovanie i razraborka osnovnih arxitekturnix resheniy sovremenix meditsinskix informatsionníx system" mavzusidagi tadqiqot ishining natijalari o'rganilgan [31;5-10-b.].

Ushbu ishda tadqiqot usullari sifatida tizimli tahlil, obyektga yo'naltirilgan dasturlash va axborot tizimlarini loyihalash usullaridan foydalilanigan. Tadqiqot ishining ilmiy yangiliklari sifatida quyidagilar olingan: tibbiy texnologik jarayonlarni rasmiylashtirish yondashuvi ishlab chiqilgan, tibbiy diagnostika xaritalarini tuzish axborot tizimining arxitekturasi ishlab chiqilgan, tibbiy diagnostika jarayonini qo'llab-quvvatlash tizimining arxitekturasi yaratilgan, diagnostika va davolash kartalaridagi ma'lumotlarni qayta ishslash algoritmlari va usullarini qurish ko'rib o'tilgan.

Ushbu ishda xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan ishlab chiqilgan tibbiyot axborot tizimlarini yaratishda qo'llaniladigan standartlar asosida axborot tizimi yaratilgan [105,107,88;153-157-b.].

Standartlar ANSI (Amerika milliy standartlashtirish instituti)ning tegishli quyi qo'mitalari va CENEvropa standartlashtirish qo'mitasining TC251 kichik qo'mitasi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Tibbiyot axborot tizimlarini ishlab chiqishda asosan, quyidagi ikkita standartdan foydalilanadi [119; 56-57b.]:

1. Health Level Seven (HL7) - matnli tibbiy hujjatlarni elektron almashish standarti [55; 34; 349-351-b.];

2. Digital Imaging and Communication in Medicine (DICOM) - Raqamli diagnostika ishlarini tasvirlash uchun tibbiyotda raqamli tasvirlash va aloqa standarti [55; 34; 349-351-b.];

HL7 standarti asosida yaratilgan axborot tizimlari uzatilgan ma'lumotlarning tarkibini tuzish, tizim dizayni imkoniyatlari, izchil uzatmalarga erishish, xavfsizlik, ishtirokchilarni aniqlash va keng ko'lamlilik kabi mezonlarni o'z ichiga olishi kerak.

A.Ye.Mixeyevning tadqiqot ishi doirasida yaratilgan dastur klient-server texnologiyasi asosida yaratilgan bo'lib, sohaning konseptual modeli va tibbiy diagnostika kartalari bazasi tizimning server tomonini tashkil etgan bo'lsa, tibbiy diagnostika kartalari muharriri tizimning klient tomonini tashkil etgan. Asosan, quyidagi natijalar olingan:

- tibbiy informatikada standartlarning roli va ularning tibbiy informatikaning rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan;
- tibbiy diagnostika xaritalarini va diagnostika jarayonini qo'llab-quvvatlash tizimining arxitekturasi ishlab chiqilgan;
- diagnostika va davolash jarayoni texnologiyasi, shu qatorda interfaol protseduralar bo'yicha mutaxassisning vakolatlarini aniqlash va topshiriq senariysi ishlab chiqilgan [31; 5-10-b.].

Monografiyada A.V. Gusevning "Modelirovanie i otsenka effektivnosti funkcionirovaniya meditsinskoy informatsionnoy sistemi" nomli tadqiqot ishi ham o'rganildi va tahlil qilindi [36; 2-5-b.].

Ishning ilmiy yangiligi shundaki:

- mavjud tibbiyot axborot tizimlarining har tomonlama tahlili o'tkazilgan va ularga zamonaviy talablar hamda tibbiyot axborot tizimlarining samaradorligi pasayishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlangan;
- mavjud sohaning o'ziga xos xususiyatlari qarab, ishlab chiqilgan tibbiyot axborot tizimining ishlash ko'rsatkichlari tahlil qilingan;
- tibbiyot axborot tizimi ma'lumotlar bazasi tuzilishining yangi usuli ishlab chiqilgan bo'lib, u uzoq muddat xizmat qilish davomida ishlash ko'rsatkichlarining zaruriy qiymatlarini ta'minlashga imkon bergen;
- yangi metodologiya asosida yaratilgan ma'lumotlar bazasiga kirish uchun mas'ul bo'lgan o'rta dasturlardan foydalangan holda tibbiyot axborot tizimini ishlab chiqish taklif etilgan;
- sog'liqni saqlash muassasalari axborot tarmog'inining matematik modeli ushbu sohaning xususiyatlari va qo'yilgan vazifalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va uning mosligi tekshirilgan hamda matematik modelni yechishning taxminiy algoritmi taklif qilingan.

Ish jarayonida ma'lumotlar bazasi bilan ishlaganda ma'lumotlar bazasini normallashtirish ishlariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Monografiyada A.S.Platonovaning “Povishenie kachestva funkcionirovaniya informatsionnoy sistemi mnogoparametricheskogo kontrolya obrazovatelnoy deyatelnosti” nomli ilmiy ishi o’rganildi va tahlil qilindi [37; 2-5-b.].

Ishning ilmiy yangiligi sifatida quyidagilar qaralgan:

- tarkibiy tahlil tamoyillaridan foydalangan holda, morfologik tahlil yordamida o’quv faoliyati to’g’risida ko’p parametrlri nazoratni tashkil etuvchi axborot modeli ishlab chiqilgan;
- tizimdagи tahlil va loyihalash metodologiyasining IDEF0 va IDEF3 standartlaridan foydalangan holda ta’lim faoliyatini ko’p parametrlri boshqarish tizimida axborot jarayonlarini tavsiflash uchun modellar yaratilgan;
- axborot modeli avtomatlashtirilgan tizimlarni qo’llab-quvvatlash konseptual modelining tuzilmaviy tahlili va tizimlarni loyihalash bo‘yicha IDEF1X standartidan foydalangan holda tuzilgan;
- ko’p parametrlri talablarni baholashni shakllantirishning protsessual modeli ishlab chiqilgan.

Yuqorida sanab o’tilgan olimlarning ishlari axborot tizimlarini yaratishdagi zamонавиy talablar asosida qiyosiy tahlil qilindi. 1.1-jadvalda tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili keltirib o’tilgan

**Tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili**

**1.1-jadval.**

No	Zamonaviy axborot tizimlarini yaratish talablari	O.Beznos	A.Mixeyev	A.Gusev	A.Platonova
1.	Ma’lumotlar bazasi jadvallarinini normallashtirish	bor	bor	bor	bor
2.	Ma’lumotlarni qayta ishlash	bor	bor	bor	bor
3.	Axborot tizimining konseptual modeli yaratish	yo’q	bor	bor	bor
4.	Ko’p topshiriqli masalalarni yechish	yo’q	yo’q	bor	bor
5.	Bilimlami baholash	yo’q	yo’q	yo’q	bor

6.	So'rovlarni tezkor qayta ishlash	yo'q	yo'q	yo'q	bor
7.	Zamonaviy modellashtirish metodologiyalarini qo'llash	yo'q	yo'q	yo'q	bor
8.	Zamonaviy dasturlash texnologiyalarini qo'llash	yo'q	yo'q	yo'q	yo'q
9.	Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish	yo'q	yo'q	yo'q	bor
10.	Integratsiya jarayonlarini amalga oshirish	yo'q	yo'q	yo'q	yo'q
	Ko'rsatgich %	20%	30%	40%	80%

Yuqorida sanab o'tilgan olimlarning tadqiqot ishlarini tahlil qilish va qiyoslash natijasida tibbiyat muassasalari xodimlarining malakasini oshirish kompleks axborot tizimini yaratishda zamonaviy yondashuvlar, usullar, vositalar va texnologiyalar aniqlandi. Natijada axborot tizimini ishlab chiqishning asosiy mezonlari belgilab olindi.

## **1.2. Tibbiyotda axborot tizimlarining xalqaro miqqyosdagi rivojlanish tendensiyasi**

Sog'liqni saqlashning hududiy tuzilishidagi darajalar, tibbiyot axborot tizimlarini kompyuterlashtirish darajasi, tibbiyot axborot tizimlarining maqsadi va funksional imkoniyatlari ushbu tushunchani izohlashda o'z izlarini qoldirmoqda. Tibbiyot axborot tizimlarining qamrov doirasi doimiy ravishda kengayib boradigan imkoniyatga ega.

Monografiyada xalqaro miqqyosda tibbiyot axborot tizimlarining tahliliy ma'lumotlari keltirilgan Ye.V.Vaganovaning "Meditinskie informatsionnie sistemi kak obyekt otsenki: faktori i tendensii razvitiya" nomli ilmiy ishlar natijasi o'rganildi va tahlil qilindi [29;113-129-b.].

Dunyoda tibbiyot axborot tizimlarining rivojlanishi 50-yillarga to'g'ri keladi. Hozirgi kunga kelib, kompyuter asosida tibbiy qarorlarni qabul qilishda bulutli texnologiyalar yordamida butun dunyo bo'ylab ma'lumot almashish mumkin. Quyidagi 1.2-jadvalda dunyoda tibbiyot axborot tizimlarining rivojlanish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin.

## 1.2-jadval.

### **Dunyoda tibbiyot axborot tizimlarining rivojlanish tendensiyasi**

No	Yil,	Jarayonlar, muallif, ilmiy hamjamiyat
1	1959 y.	Amerikalik fiziologik va biofizik olim, professor, Robert Ledley "Science" jurnalida qarorlarni qabul qilishning diagnostik jarayoni to'g'risida maqola e'lon qildi, xavf va noaniqlik sharoitida qarorlarni qabul qilish usullarini tahlil qildi, birinchi bo'lib, kompyuterda tibbiy qarorlarni har tomonlama muhokama qilishni taklif qildi.
2	1969 y.	EVMga asoslangan holda bemorlar to'g'risida mu'lumotlarni jamlagan ma'lumotlar bazasi asosida tibbiyot axborot tizimi ishlab chiqildi.
3	1965 y.	Kaliforniyaning El-Kamino shifoxonasida birinchi bo'lib, klinik-yo'naltirilgan axborot tizimi yaratildi.
4	1967 y.	Mantiqiy ishlov berishga mo'ljallangan Health Evaluation through Logical Processing (HELP) to'plangan klinik ma'lumotlar integratsiyasi uchun birinchi tibbiyot axborot tizimi yaratildi.
6	1968 y.	Tibbiy informatika asoschisi Okto Barnett tomonidan "COSTAR" (Computer STored Ambulatory Record) elektron kasallik tarixi axborot tizimi yaratildi.
7	1970 y	Mini-kompyuterlardan foydalanib, bemorlarning kasallik tarixi haqida ma'lumot kiritishga va ularni saqlashga imkon beruvchi markazlashtirilmagan kasalxonada kompyuter dasturi yaratildi.
8	1976 y.	Vermonte universitetidagi tibbiyot markazida Lourens Vid va Yan Shuls tomonidan PROMIS – Klinik o'qish va bemorlarga yo'naltirilgan kompyuter tizimi yaratildi.
9	1980 y.	Amerikalik olim, tibbiyotda sun'iy intelektni qo'llash asoschisi Edvard Shortlif tomonidan Stenford universitetida biotibbiy informatika bo'yicha birinchi o'quv dasturni yaratdi.
10	1980 y.	Katta tibbiyot axborot tizimining tizim osti markazlashgan ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilindi.
11	1984 y.	Gollandiyalik professor Yan Van Bemmel tibbiyot fanida talab qilinadigan uslubiy va texnik bilimlarni tushunish uchun asos bo'lgan tibbiy informatikaning tarkibiy bazasini taqdim etdi.
13	1990 y.	Bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish ko'lami va murakkabligi kengaydi. Internetning ta'siri klinik ma'lumotlar va tibbiy bilimlarning global almashinuvini kengaytirdi.
15	2000 y.	Taqsimlangan axborot tizimlari shifokorlarga tibbiy muassasaning butun ma'lumotlar bazasiga tahlil natijalarini kiritish va qayta ishlash uchun avtomatlashtirilgan ish stansiyalaridan foydalanishga imkon berdi.

16	2010 y.	Mobil sog'liqni saqlash xizmati paydo bo'ldi (mobile e-health care) va u bulutli texnologiyalar yordamida butun dunyo bo'ylab simsiz aloqa tibbiyot markazlarining ma'lumotlar bazasini birlashtirishga imkon berdi
17	2018 y.	Tibbiyot sohasiga IoT (Internet of things) texnologiyalari kirib keldi.

Ilmiy izlanish davomida yana bir nechta rivojlangan davlatlarda elektron tibbiyot yoki tibbiyot axborot tizimlarini rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi 1.3 va 1.4-jadvallarda Germaniya va Janubiy Koreya davlatlarida tibbiyot axborot tizimlarining rivojlanish bosqichlari keltirib o'tilgan [29;113-129-b.].

### 1.3-jadval.

#### **Germaniyada tibbiyot axborot tizimlarining rivojlanishi**

Nº	Nomi	Vazifasi, funksiyasi
1	Tibbiyot muassasalari faoliyatini qo'llab, quvvatlash va ular o'rasisida ma'lumot almashish axborot tizimi.	Integratsiyalashgan sog'liqni saqlash tizimi, elektron tibbiy karta, sug'urta kompaniyalari bilan o'zaro munosabatlar, buxgalteriya va soliq hisobini yuritish.
2	Tibbiyot muassasalari va sug'urta fondini qo'llab-quvvatlash axborot tizimi	Boshqaruv jarayonlarini nazorat qiladi, Tibbiyot pasporti, taskilotlar, personal registri, diagnostika, tibbiy yordamni ro'yxatga olish, monitoring dasturlar to'plamidan iborat.
3	Axborot-ma'lumotnomma axborot tizimi	Axborot-ma'lumot xizmatini taqdim etadi, qabulga yozilish va turli xil ma'lumotnomalamani berish.
4	Tizimning markazlashtirilgan tarkibiy qismlari va ma'lumotlarni himoya qilish axborot tizimi	Ma'lumotlarni saqlash, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, axborot xavfsizligi, tizim foydalanuvchilari katalogi, raqamli imzolarni berish, operatsiyalarni boshqarish.

### 1.4-jadval.

#### **Janubiy Koreyada joriy qilingan tibbiyot axborot tizimlari**

Nº	Nomi	Vazifasi, funksiyasi
1	Tibbiyot muassasalarining integratsiyalangan tizimi	Standartlashtirilgan tizimlar, 3500 dan ortiq tibbiyot muassasalarida ko'rsatiladigan xizmatlarni o'z ichiga olgan.
2	Koreyada sug'urta axborot tizimi	Tibbiy xizmatlarni nazorat qilish, davo arizalarini nazorat qilish.
3	Dori-darmonlardan foydalanishni nazorat qilish axborot tizimi.	Foydalilanigan dori vositalarini onlayn rejimda tekshirish va analiz qilish. Bemorlarga retsepler berish dori haqida ma'lumotlarni tekshirish.
4	Dori vositalarini taqsimlash axborot tizimi.	Barcha bo'g'inlarda dori vositalarini nazorat qilish, dori-darmonlarni ishlab chiqarish, yetkazib berish va sotib olish to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, AQSh tibbiyotida axborot texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish natijasida 77 milliard dollargacha mablag'larni tejashga olib kelgan. Germaniyada o'tkazilgan tadqiqotlar "elektron sog'liq"qa o'tish davrida mavjud xarajatlarni 30 foizgacha tejashni taxmin qiladi. Xususan, elektron retsept texnologiyasini joriy etish yiliga 200 million yevrodan ortiq mablag'larni tejashga xizmat qiladi [29;113-129-b.].

Bugungi kunda dunyoning bir qator yetakchi kompaniyalari o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda zamонавиу texnologiyalarini joriy etib kelmoqdalar. Ushbu joriy etilgan texnologiyalar ta'lim sohasining tendensiyalarini belgilab bermoqda. Jahon miqyosida bir qancha o'quv jarayonining boshqaruv axborot tizimlari yaratilgan bo'lib, ular asosan o'quv jarayoni va o'quv kontentini boshqarishni o'z ichiga oladi. Quyidagi 1.5-jadvalda tibbiyot xodimlarining malakasi oshirish kompleks axborot tizimi va o'quv jarayoni hamda o'quv kontentini boshqarish axborot tizimlarini qiyosiy solishtirish jadvali keltirib o'tilgan [118;28-30-b.].

## 1.5-jadval.

### Axborot tizimlarini qiyosiy solishtirish jadvali

<b>Mezonlar</b>	<b>LMS - o'quv jarayonini bosqarish tizimi (moodle)</b>	<b>LCMS - o'quv kontentini bosqarish tizimi</b>	<b>Tibbiyot xodimlarining malakasi oshirish kompleks axborot tizimi</b>
Foydalanuvchilar kategoriysi	Ta'lism oluvchilar, o'qituvchilar, o'quv jarayoni tashkilotchilari	Kontentni ishlab chiquvchilar	tinglovchilar, o'qituvchilar, xodimlar, o'quv jarayoni tashkilotchilari
Biznes jarayonlami amalga oshirish	O'quv jarayoni: ta'lim dasturlari va rejalashtirish	O'quv kontenti	Ta'lim jaryonlarini rejalashtirish, yillik kalender rejalarni shakllantirish
Elektron ta'limni boshqarish	Bor	Bor	Bor
An'anaviy shakldagi ta'limni boshqarish	Bor	Yo'q	Bor
Noan'anaviy shakldagi ta'limni boshqarish	Yo'q	Yo'q	Bor
Ta'lim natijalarini kuzatish	Bor	Bor	Bor
Ta'lim oluvchilarining hamkorlikdagi ishlarni qo'llab-quvvatlash	Bor	Bor	Bor
Ta'lim profillarini boshqarish	Bor	Yo'q	Bor
O'quv mashg'ulotlari jadvalini boshqarish	Bor	Yo'q	Bor
Kursga qayd etilganlik to'g'risida xabardor qilish, ko'rib chiqish uchun	Bor	Yo'q	Bor

talablar va bekor qilingan kurslar haqida xabardor qilish			
Attestatsiya materiallarini ishlab chiqish va testlarni boshqarish	Yo'q	Bor	Bor
Adaptiv testlashtirishni qo'llab-quvvatlash	Bor	Yo'q	Bor
Kontentni yaratishni qo'llab-quvvatlash	Yo'q	Bor	Yo'q
Boshqa axborot tizimlari bilan Integratsiyani tashkil etish	Bor	Bor	Bor
Personal xodimlar faoliyatini boshqarish	Yo'q	Yo'q	Bor
Elektron hujjat aylanish jarayonlarini tashkil etish	Yo'q	Yo'q	Bor
Professor-o'qituvchilar reytingini tashkil etish	Yo'q	Yo'q	Bor
Elektron shartnomalar berish va monitoring qilish	Yo'q	Yo'q	Bor

Zamonaviy modellashtirish metodologiyalari asosida yaratilgan tibbiyot xodimlarining malakasi oshirish kompleks axborot tizimi noan'anaviy shakldagi o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishda muhim vazifalarni bajaradi.

Tibbiyot axborot tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha rossiyalik olim S.A. Gasparyan 1978-yildan 2001-yilgacha ilmiy ishlar olib bordi hamda o'zining 5 ta klassifikatsiyasini tavsiya etdi. Ular quyidagicha:

*tibbiy-tekhnologik axborot tizimlari* tibbiy muassasalarda bemorlarni diagnostika qilish, davolash, reabilitatsiya qilish va profilaktika jarayonlarini axborot bilan ta'minlashdan iborat bo'ladi;

*tibbiy xizmatlar axborot banki* tibbiy muassasalarning ma'lumot xizmatlari va sog'liqni saqlashni boshqarish xizmatlari uchun tibbiy ma'lumot banklarini o'z ichiga oladi;

*tibbiyot statistikasi axborot tizimi* tibbiyot sohasidagi barcha statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

*tibbiyot ilmiy-uslubiy axborot tizimlari* sog‘liqni saqlash boshqarmalarida va klinik tadqiqotlar institutlarida tibbiy tadqiqotlarni axborot bilan ta’minlash uchun mo’ljallangan;

*tibbiyot ta’limi axborot tizimi* tibbiyot ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi [38;31-32-b.].

Monografiyada ishlab chiqilgan tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish, elektron yo’llanma olish, xodimlar bo‘limi faoliyatini boshqarish va tinglovchilar bilimlarini baholash axborot tizimlarini yaratishda yuqorida sanab o‘tilgan klassifikatsiyaning “tibbiyot ta’limi axborot tizimi” qismida ko‘rsatilgan tavsiyalar inobatga olindi. [38;31-32-b.].

### **1.3. Tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish uchun axborot tizimlarini ishlab chiqishda qo‘yilgan asosiy talablar**

Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarining axborot modellari va tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishda birinchi o‘rinda, muammolar va kechadigan jarayonlar o‘rganildi. Ushbu tizimlarni ishlab chiqishdagi asosiy muammo o‘quv jarayoni biror-bir an’anaviy o‘quv jarayonlariga mos kelmasligidir. Shuning uchun axborot tizimini yaratishda tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv jarayoni chuqur o‘rganildi va tahsil qilindi. Asosiy maqsad ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaratish modelini ishlab chiqarishdan iborat bo‘ldi. Agar axborot tizimini yaratishda uning ma’lumotlar tuzilmasi va tizim arxitekturasi to‘g‘ri qurilgan bo‘lsa, bunday axborot tizimlarida ma’lumot almashish tezligi yuqori hamda ma’lumotlar yo‘qotilishi kamroq bo‘ladi. Bu o‘z navbatida foydaluvchilarga keng qamrovli qulayliklar yaratib beradi. Axborot tizimini yaratishda o‘rganishlar va tahllillar asosida tizimni yaratishga asos bo‘lgan tizimning tuzilmasi va funksiyasi hamda shu funksiyalarni bog‘lovchi axborot va moddiy obyektlar oqimlarini ifodalovchi funksional modellarni tuzish metodologiyasi, ya’ni IDEF0 metodologiyasi, shuningdek, tizim funksionalligini qo’llab-quvvatlash uchun tuzilmalar va axborot

oqimlari mazmunini ifodalovchi IDEF1 metodologiyasi asosida axborot tizimining modellari ishlab chiqildi [18; 12085-12090-b., 68; 287-292-b.].

Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarining axborot tizimlarini ishlab chiqishda qo'yilgan asosiy talablar aniqlashtirib olindi.

Birinchi o'rinda asosiy jarayon hisoblangan o'quv jarayonini boshqarish va monitoringini yuritish axborot tizimini ishlab chiqish maqsad qilib olindi.

Ushbu axborot tizimini yaratishda quyidagi asosiy funksiyalar nazarda tutilgan:

- kursantlar kontingentini yuritish (fakultet, sikk va guruuhlar kesimida);
- o'qituvchilar kontingentini yuritish (fakultet, kafedra kesimida);
- o'quv jarayonini tashkil etish (sikllar, yillik kalendar reja, guruuhlar bo'yicha dars jadvali);
- kursantlarning davomat monitoringi (dars jadvali va elektron jurnal);
- kursantlarning o'zlashtirish monitoringi – sikllar asosida joriy nazorat, test sinovi (boshlang'ich va yakuniy test sinovi), malakaviy amaliyot (amaliy ko'nikmani baholash, malaka mahorati, imtihon va yakuniy baho), reyting qaydnomasi
- o'qituvchilar faoliyatini baholash (o'qituvchilar reyting ko'rsatkichlari, hisobotlar)
- elektron hisobotlarni shakllantirish (kontingent, davomat, o'zlashtirish, qabul qilish, to'lovlar, guruuhlar, sikllar)
- kutubxona ish faoliyatini boshqarish (kursantlarning kutubxonaga kelib ketishi va kitoblardan foydalanish statistikasini yuritish)
- mehmonxona nazoratini yurish (kursantlarga mehmonxona ajratish va mehmonxona nazoratini yuritish)
- interaktiv onlayn xizmatlar (sikllar, o'quv grafiklari, kursantlar, o'qituvchilar)

Keyingi qadamda elektron yo'llanma olish axborot tizimi yaratish vazifasi belgilandi. Malaka oshirish jarayonida hujjatlar topshirish va qabul qilishni masofadan amalga oshirish tinglovchilarga bir qancha

qulayliklar yaratadi va sarf-xarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Shu sababli elektron yo'llanma olish axborot tizimi bu jarayon uchun qulay hisoblanadi. Ushbu tizim orqali malaka oshiruvchilar masofadan turib ariza berishlari mumkin. Ta'lim muassasasi ushbu arizani belgilangan muddatda ko'rib chiqadi hamda taqdim etilgan elektron ko'rinishdagi ilova qilingan hujjatlarni o'rganadi, so'ngra kursantga tegishli sikl bo'yicha arizasini qabul qiladi va siklga biriktiradi. Agar hujjatlar belgilangan talablarga to'g'ri kelmasa, rad etishi ham mumkin.


Keyingi qadamda tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida xodimlar bo'limi ish faoliyatini avtomatlashtirishga asoslangan axborot tizimi ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Buning natijasida xodimlarni ishga qabul qilish va ular bilan ishslashda duch keladigan bir qancha amallar to'liq axborot tizimiga yuklatildi, masalan, xodimni ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, xizmat safariga jo'natish, ta'tilga chiqarish, obyektivka ma'lumotlarini yaratish va xodimlar to'g'risidagi turli xil statistik ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi.

Keyingi o'rinda malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning bilimini baholash va monitoring qilish axborot tizimini yaratish vazifasini bajarish ko'zda tutilgan. Ushbu axborot tizimi klient-server texnologiyasi asosida zamонави veb dasturlash tilida yaratilishi hamda lokal va global tarmoqlarda ishlashi zarur [87;30-55-b.]. Axborot tizimi ixtiyoriy turdag'i ma'lumotlarni qabul qilishi (matn, rasm, grafik, formula va turli xil belgilar) talab etiladi. Axborot tizimida tinglovchilar kontingenti va savollar bazasi shakllanadi. Savollar bazasi cheklanmagan miqdorda qabul qilishi hamda savollarning qiyinlik darajasini hisobga olgan holda avtomatik tarzda generatsiya qilish talab etiladi. Natjalarni esa excel dasturiga export qilish imkonini yaratilishi talab etiladi.

Axborot tizimlariga qo'yilgan talablar asosida 1.1-rasmda keltirilgan axborot tizimlarini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'z navbatida, 1.1-rasmda keltirilgan axborot tizimlarini yaratish va o'zaro integratsiyasini hosil qilish tibbiyot muassasasi xodimlari malakasini oshirish jarayonlarining ish faoliyati samaradorligi hamda shaffofigini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonini boshqarish va monitoringini yuritish axborot tizimni yaratish orqali o‘quv muassasasida o‘quv grafigi va o‘quv jarayonini tashkillashtirish, monitoringini yuritish, o‘qituvchi va kursantlar kontingeninti yuritish, ularning o‘zlashtirish va davomat ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda interaktiv xizmatlarni taqdim etishi mumkin [43;74-b.].



### **1.1-rasm. Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarining kompleks axborot tizimi**


Tinglovchilar bilimlarini baholash axborot tizimi yaratish orqali tinglovchilarning masofadan turib bilimlari baholash imkoniyati hosil qilinadi [44;68-70-b.,45;52-56-b.,100;103-106-b.,99;96-99-b.].

Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarining axborot tizimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydag‘i PQ-4328-son Qarorining ilovasida keltirilgan ““Elektron hukumat” tizimi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida idoralararo va idoraviy axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari, dasturiy mahsulotlar yaratish va joriy etish bo‘yicha loyihalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

sohasidagi boshqa loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablari asosida ishlab chiqildi. Nizomda belgilab o‘tilgan loyiha pasporti, loyiha konsepsiyasi, texnik topshiriq, tender hujjatlari, postmonitoring kabi me’yoriy hujjatlar yaratildi [4,9;52-53-b.,10;148-b.,11; 63-66-b.].


Axborot tizimlarini ishlab chiqishda birinchi o‘rinda, tahlil ishlari olib boriladi, talablar o‘rganiladi va taklif tayyorlanadi hamda kerakli hujjatlar to‘plami shakllantiriladi, so‘ngra axborot tizimini yaratish ishlari boshlanadi. Jumladan, tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish, elektron yo‘llanma olish, xodimlar bo‘limi ish faoliyatini boshqarish va tinglovchilar bilimlarini baholash axborot tizimlarini ishlab chiqishda o‘quv muassasasi faoliyati tahlil qilindi, takliflar o‘rganildi hamda loyihalashtirish ishlari olib borildi. Quyida keltirilgan 1.2-rasmda tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarining kompleks axborot tizimini yaratishda kechadigan BPMN jarayonlar keltirib o‘tilgan [66;30-33-b.,67;35-40-b,69;55-60-b.].

Har bir dasturiy ta’midot va axborot tizimlari ishlab chiqilganda uning hayot sikli bo‘ladi va bu tizimning hayot sikli modeli deb yuritiladi[105]. Hayot sikli modeli deganda butun hayot sikli davomida bajariladigan masala, harakat va jarayonlarni bajarilish ketma-ketligini va ular o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlovchi struktura tushuniladi [32;8-11-b.,62;5-8-b.,105]. Dasturiy ta’midotning hayot sikli uzlusiz jarayondan iborat bo‘lib, u dasturiy ta’midotni yaratish haqida qaror qabul qilingan paytdan boshlanadi va butunlay ekspluatatsiyadan olib tashlash bilan tugallanadi. Dasturiy ta’midot hayot sikli jarayonining tarkibiy qismi ISO/IEC12207:2008 “Information Technology – Software Life Cycle Processes” (“Axborot texnologiyalari – dasturiy ta’midot hayotiy siklining jarayoni”) xalqaro standarti bilan tartibga solinadi [40].



**1.2-rasm. Kompleks axborot tizimini yaratishda kechadigan BPMN jarayonlar**

ISO/IEC12207:2008 xalqaro standartiga asosan, tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimlarini hayot sikli tashkil etildi va ular orasidagi kechadigan jarayonlar ishlab chiqildi. Ushbu jarayonni quyidagi 1.3-rasmda ko'rish mumkin [40].



**1.3-rasm. Tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish kompleks axborot tizimining hayot siklida kechadigan jarayonlar**

Kompleks axborot tizimini yaratishda malaka oshirish o'quv jarayonlari chuqur tahlil qilindi va kerakli parametrlar aniqlab olindi. 1.6-jadvalda an'anaviy hamda tibbiyot sohasida malaka oshirish o'quv jarayonining qiyosiy tahlili keltirilgan.

### 1.6-jadval.

#### O'quv jarayonining qiyosiy solishtirish jadvali

Nº	Jarayonlar	An'anaviy ta'lim jarayoni	Tibbiyot sohasida malaka oshirish o'quv jarayoni
1	O'quv davri	O'quv yili	O'quv yili
		Semestr	
2	Kontingent	O'qituvchi	O'qituvchi
		Talaba	Kursant
			Tinglovchi
3	Dars jadvali	Juftlik	Soat
		Fan	Sikl
		Mavzu	Sikl mavzusi
		O'quv xonasasi	Baza (bino, xona)
4	O'quv mashg'uloti	Ma'ruza	Ma'ruza
		Amaliyot ishi	Amaliy dars
			Master klass
			Maslahat soati
		Laboratoriya ishi	Laboratoriya ishi
5	Nazorat	Seminar	Seminar
		J.N., O.N., Ya.N.	Test nazorati
			Amaliy ko'nikma nazorati
			Malakaviy amaliyot nazorati
			Yakuniy imtihon nazorati

Ushbu jadvalda keltirilgan o'quv jarayonlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadi, tibbiyot sohasida malaka oshirish o'quv jarayonlarini tashkil etish, axborotlashtirish va axborot tizimlarini ishlab chiqish alohida yondoshuvni talab etadi. Kompleks axborot tizimini yaratishda tibbiyot sohasida malaka oshirish o'quv jarayonining xususiyatlari inobatga olindi.

## **II BOB. AXBOROT TIZIMLARINING MA'LUMOTLAR BAZASI VA RELYATSION BOG'LANISHLARNI TASHKIL QILISH**

### **2.1. Relyatsion model asosida tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimining ma'lumotlar bazasini yaratish**

Barcha axborot tizimlarining asosida ma'lumotlar bazasi yotadi va shu ma'lumotlar bazasidagi amallar orqali ma'lumot almashish mumkin bo'ladi [77;78]. Axborot tizimlarining ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishda hozirda amalda bo'lgan O'zDSt 1135:2007 "Axborot texnologiyasi. Ma'lumotlar bazalari va joylardagi davlat boshqaruvi hamda davlat hokimiyati organlari o'rtasida axborot almashishiga qo'yiladigan talablar" davlat standartida belgilab berilgan talablarga muvofiq davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari ishlab chiqilishi lozim. Ushbu standart orqali ma'lumotlar bazalarining dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, ekspluatatsiya qilish va texnik jihatdan kuzatish bosqichlaridagi ma'lumotlar bazalariga hamda joylardagi davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlarining axborot tizimlari o'rtasida axborot almashishga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilash mumkin [39;1-b.].

Ma'lumotlar bazasi deganda ma'lum masalaga yoki biror faoliyatga tegishli o'zaro bog'langan va alohida ko'rinishda tashkil etilgan hamda xotira qurilmalarida saqlangan ma'lumotlarni tushunamiz. Ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar o'zaro bog'langan ko'rinishda, ya'ni relyatsion ko'rinishda tashkil qilinadi [7;197-198-b.,64;5-6-b.,53;81-90-b.]. Axborot tizimlarining ma'lumotlar bazasi to'liqlik, aktuallik, qulaylik va to'g'ri tashkil etish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimining ma'lumotlar bazasi relyatsion ko'rinishda tashkil etilgan. Relyatsion ma'lumotlar bazasi o'zaro bog'langan jadvallardan iborat bo'lib, har bir jadval bir turdag'i obyektlar to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Barcha shunday jadvallar to'plami ma'lumotlar bazasini tashkil etadi. Ushbu axborot tizimining ma'lumotlar bazasi MySql ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida

yaratilgan. MySql ma'lumotlar bazasi bilan ishlaganda ma'lumotlar bazasini yaratish, jadval yaratish, jadvalga ma'lumotlarni yozish, jadvaldan turli xil usulda ma'lumotlar chiqarish, bir vaqtning o'zida bir nechta jadval bilan ishlash kabi imkoniyatlarni beradi [111;413-b., 96;109-117-b., 97;670-b.]. PHP odatda, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimidan ko'pchilik bo'lib foydalanishga ruxsat beradi, lekin PHP dasturlash tili bilan birga bugungi kunda eng ommabop ma'lumotlar bazasi MySql hisoblanadi. MySql sql buyruqlaridan foydalanish imkonini beruvchi bepul dasturiy ta'minot hisoblanadi [111;413-415-b., 112;350-360-b.]. MySql ma'lumotlar bazalari bilan ishlashni soddalashtirish uchun Phpmyadmin skriptlarining maxsus to'plamini o'rnatish talab etiladi. [111; 615-620-b.].

Ma'lumotlar bazasi bilan barcha ishlar bazaviy konteyner oynasi orqali amalga oshiriladi. Bu yerdan: jadvallar, so'rovlар, shakllar, hisobotlar, makroclar, modullar kabi sql so'rovlар tili til bilan ishslash uchun maksimal moslashuvchanlikni beradi va tashqi ma'lumotlarga kirishni sezilarli darajada tezlashtiradi [81;35-36-b., 82;23-40-b.]. Ma'lumotlar bazasi tarkibini jadvallar va ularning atributlari tashkil etadi [64; 5-6-b.].


Hozirgi kunda veb-serverlar imkoniyatini kengaytirish maqsadida java servlet dasturiy ta'minotidan foydalanish amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ma'lumolar bazasida so'rovlarni qayta ishslash tezligi oshadi [12;427-428-b.].

Tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimining ma'lumotlar bazasi bir nechta jadvallardan tashkil topgan. Quyida asosiy jadvallar guruhi keltirib o'tilgan.

- **Tinglovich kontingenti:** *students, student\_contingent, student\_files*
- **O'qituvchi kontingenti:** *teachers, teachers\_meta*
- **Tuzilma va sikllar:** *faculties, departments, cycles, groups*
- **Dars jadvali:** *timetable, tb\_days, tb\_months*
- **O'zlashtirish:** *ratings, rating\_type\_cycle*
- **Davomat:** *absents, absenst\_control,*
- **O'qituvchilar reytingi:** *activities, activities\_criterion, activities\_result, plans*

- **Ilmiy ishlar:** *science\_work\_type\_fixed, articles, books, dissertation, journals, patents, projects, organizational*
- **Shartnomalar:** *contracts, contract\_meta*
- **Klassifikator:** *countries, provinces, cycle\_category, cycle\_type, contract\_type, doc\_type, rating\_type, sub\_notifacitions\_type, science\_work\_type, nations, occupation, occupation\_type, hours, pairs, regions, study\_years, specialties, posts*
- **Mehmonxonalar:** *reg\_hotel, rooms\_hotel, entrance\_hotel, hotel\_rooms\_currency*
- **Kutubxona:** *library\_reg*
- **Elektron yo'llanma:** *submission, submission\_notifacitions, electronic\_submission, report\_files*

Quyidagi 2.1-rasmda tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimining jadvallari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar keltirib o'tilgan.



**2.1-rasm.** Tibbiyot muassasalarai xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimi ma'lumotlar bazasining jadwallari o'tasidagi o'zaro bog'lanish tuzilmasi

Tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimidagi jadvallar  $\{R_1, R_2, \dots, R_n\}$  ko‘rinishida belgilangan. Har bir munosabatlar kamida bitta kortej (satr) va atribut (ustun)lardan iborat. Ular quyidagicha tasvirlangan:  $X_i$ - atributlar to‘plami,  $r_i[x_i]$  –  $X_i$  atributga mos keluvchi  $R_i$  munosabatning kortejlari. Relyatsion ma’lumotlar bazasidagi jadvallarni shakllantirish quyidagicha tasvirlangan: [113; 5-20-b., 114;51-61-b., 115; 60-70-b., 63;3-6-b., 65; 136-138-b.].

$$R_i[X_i] = \{r_i[x_i] | r_i \in R_i\} \quad i=1, \dots, n; \quad (2.1)$$

Tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimida jami 64 ta munosabat ishlab chiqilgan. Ushbu qismda jarayonlarni amalga oshirish uchun 28 ta asosiy munosabatlar ko‘rsatib o‘tilgan. (1)-(24)- formulalar asosida munosabatlarni yaratish orqali relyatsion hisoblashlarni bajarish imkonini yaratiladi:

*faculty* –  $R_1$  munosabati muassasadagi fakultetlar nomlarini belgilashga xizmat qiladi:

$$R_1[x_1, x_2] = \{r_1[x_1], r_1[x_2] | r_1 \in R_1\}, \quad (2.2)$$

bu yerda,  $r_1[x_1]$  – fakultet kodi,  $r_1[x_2]$  – fakultet nomi.

*department* –  $R_2$  munosabati muassasadagi fakultetlarga tegishli kafedralarni ro‘yxatga olish uchun xizmat qiladi:

$$R_2[x_1, \dots, x_6] = \{r_2[x_1], \dots, r_2[x_6] | r_2 \in R_2\}, \quad (2.3)$$

bu yerda,  $r_2[x_1]$  – kafedra kodi,  $r_2[x_2]$  – kafedra nomi,  $r_2[x_3]$  – fakultet kodi va uning qiymati  $r_2[x_4]$  dan olinadi,  $r_2[x_4], \dots, r_2[x_6]$  – boshqa qo‘sishimcha ma’lumotlar.

*study\_year* –  $R_3$  munosabati o‘quv yillarini o‘z ichiga oladi:

$$R_3[x_1, x_2] = \{r_3[x_1], r_3[x_2] | r_3 \in R_3\}, \quad (2.4)$$

bu yerda,  $r_3[x_1]$  – o‘quv yili kodi,  $r_3[x_2]$  – o‘quv yili nomi.

$R_4$  dan  $R_8$  gacha bo‘lgan munosabatlar elektron yo’llanma olish axborot tizimiga tegishli bo‘lib, ushbu munosabatni monografiyaning

“Relyatsion model asosida elektron yo‘llanma olish axborot tizimining ma’lumotlar bazasini yaratish” qismda aks ettiramiz [20;207-211-b.].

*students* –  $R_9$  munosabati tinglovchilarning shaxsiy ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi:

$$R_9[x_1, \dots, x_{58}] = \{r_9[x_1], \dots, r_9[x_{58}] | r_9 \in R_9\}, \quad (2.5)$$

bu yerda,  $r_9[x_1]$  – tinglovchi kodi,  $r_9[x_2]$  – tinglovchi ismi,  $r_9[x_3]$  – tinglovchi familiyasi,  $r_9[x_4]$  – tinglovchi sharifi,  $r_9[x_5]$  – tinglovchining shaxsiy identifikatsiya raqami,  $r_9[x_6], \dots, r_9[x_{58}]$  – boshqa qo’shimcha ma’lumotlar.

*groups* –  $R_{10}$  munosabati guruh ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi:

$$R_{10}[x_1, \dots, x_8] = \{r_{10}[x_1], \dots, r_{10}[x_8] | r_{10} \in R_{10}\}, \quad (2.6)$$

bu yerda,  $r_{10}[x_1]$  – guruh kodi,  $r_{10}[x_2]$  – guruh nomi,  $r_{10}[x_3]$  – fakultet kodi va uning qiymati  $r_{10}[x_4]$  – dan olinadi,  $r_{10}[x_5]$  – kafedra kodi va uning qiymati  $r_{10}[x_6]$  – dan olinadi,  $r_{10}[x_7]$  – sikl kodi va uning qiymati  $r_{10}[x_8]$  – dan olinadi,  $r_{10}[x_9], \dots, r_{10}[x_{10}]$  – boshqa qo’shimcha ma’lumotlar.

Tizimga ma'lumotlarni kiritish ketma - ketligi quyidagicha: ta'lim muassasasi tuzilmasini yaratish; o'qituvchilar kontingentini shakllantirish; kursantlar kontingentini shakllantirish; yillik kalender rejani kiritish; mashg'ulotlar dars jadvalini shakllantirish; kursantlar

davomatinini kiritish va monitoringini olib borish; kursantlarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini shakllantirish va monitoringini olib borish

**O'qituvchilar moduli.** Tizimda o'qituvchilar kontingentini shakllantirish ta'lif muassasasi tuzilmasiga mos ravishda amalgalashiriladi. Ta'lif muassasasi tuzilmasidagi fakultetlar, fakultetlar tarkibidagi kafedralar va kafedralarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar to'g'risida ma'lumotlar shakllantiriladi [17; 1-4-b, 18,19,20, 21;174-176-b.].

Professor-o'qituvchilarning tizimda familiyasi, ismi va sharifi, lavozimi, stavkasi, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, mutaxassisligi, tug'ilgan yili va sanasi, pasport seriyasi va raqami, fakultet nomi, kafedra nomi, login va paroli kabi ma'lumotlari shakllantiriladi.

**Kursantlar moduli.** Tizimda kursantlar kontingenti fakultetlar kesimida shakllantiriladi. Bunda dastlab fakultet kafedralarida mavjud bo'lgan sikllar kiritiladi. Shundan so'ng sikllarga tegishli guruhlar va unda malaka oshirayotgan kursantlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi [17; 1-4-b., 18,19,20, 21;174-176-b.]. (3.7-rasm).



**3.7-rasm. Kursantlar moduli ma'lumotlarining iyerarxik tuzilmasi**

Kursantlar ma'lumotlarining iyerarxik tuzilmasi yordamida kursantlar ma'lumotlari tuzilmasini keltirish mumkin. Ushbu tuzilma 3.8-rasmida keltirilgan

факультет		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>name</b>	varchar(255)

кафедра		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>name</b>	varchar(255)
3	<b>faculties_id</b>	int
4	<b>address_uz</b>	text
5	<b>address_ru</b>	text
6	<b>address_en</b>	text

гурӯҳ		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>name</b>	varchar(255)
3	<b>faculties_id</b>	int
4	<b>departments_id</b>	int
5	<b>status</b>	tinyint(4)
6	<b>cycles_id</b>	int
7	<b>study_years_id</b>	int
8	<b>teacher_id</b>	int


циқла		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>name</b>	varchar(255)
3	<b>departments_id</b>	int
4	<b>faculties_id</b>	int
5	<b>cycle_type_id</b>	int
6	<b>start_date</b>	date
7	<b>end_date</b>	date
8	<b>period</b>	varchar(45)
9	<b>training_period</b>	int
10	<b>edu_type</b>	int
11	<b>study_years_id</b>	int
12	<b>place_base</b>	varchar(255)
13	<b>teacher_id</b>	int
14	<b>is_deadline</b>	int
15	<b>student_id</b>	int

тингловчи		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>first_name</b>	varchar(255)
3	<b>second_name</b>	varchar(255)
4	<b>third_name</b>	varchar(255)
5	<b>group_id</b>	int
...	...	...
58	<b>status</b>	int

### 3.8-rasmida. Kursantlar ma'lumotlari tuzilmasi

Kursantlar ma'lumotlari tuzilmasida jadval, jadval maydoni va maydon turi keltirib o'tilgan. Jadvallarni bir-biri bilan bog'lash uchun birlamchi va ikkilamchi kalit o'rnatiladi. Kalitlar so'rovlarni bajarishda muhim rol o'ynaydi. Xuddi shu usulda axborot tizimining istalgan ma'lumotlar tuzilmasini ishlab chiqish mumkin. Ushbu tuzilmadan ko'rinish turibdiki, fakultet tarkibida bir nechta kafedralar mavjud, ushbu kafedralarda bir nechta sikllar va guruhlar mavjud, kursantlar kafedraga tegishli guruh va siklga biriktiriladi.


**Sikl moduli.** Tizimning “Sikl” moduli yillik o‘quv grafigini qamrab oladi. Unda fakultet va kafedralar kesimida sikllarning turlari, muddati va o‘tkazilish joylari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritiladi [17; 1-4-b., 18,19,20, 21;174-176-b.]. (3.9-rasm).



**3.9-rasm. Sikl moduli ma’lumotlarining iyerarxik tuzilmasi**


Tizimda sikl ma’lumotlari kesimida fakultet nomi, kafedra nomi, sikl turi, sikl nomi, sikl muddati, sikl yuklamasi, o‘tkazish joyi, mas’ul o‘qituvchi kabi ma’lumotlar shakllantiriladi. Sikllar ikki xil ko‘rinishda olib boriladi: budjet hisobida o‘tkaziladigan va xo‘jalik hisobida o‘tkaziladigan sikllar.

**Dars jadvali moduli.** Tizimning “Dars jadvali” moduli o‘quv jarayoni grafigini belgilaydi hamda kafedra va sikllar kesimida mashg‘ulotlarning nomi, turi, o‘tkazilish vaqtiga va joylari hamda mashg‘ulotni o‘tkazuvchi o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumotlarni qamrab oladi [17; 3-4-b.].




**3.10-rasm. Dars jadvali moduli ma’lumotlarining iyerarxik tuzilmasi**

**Davomat moduli.** Tizimning “Davomat” moduli kursantlarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashish monitoringini yuritish uchun xizmat qiladi. Davomat moduli to‘g‘ridan-to‘g‘ri dars jadvali moduli bilan ishlaydi hamda kursantlarning dars jadvaliga mos ravishda o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlaydi va tegishli xodimlarga taqdim etadi [17].



### 3.11-rasm. Davomat moduli ma’lumotlarining iyerarxik tuzilmasi

**O‘zlashtirish moduli.** Tizimning “O‘zlashtirish” moduli kursantlarning o‘quv mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari monitoringini yuritish uchun xizmat qiladi. O‘zlashtirish modulida sikllar kesimida undagi mashg‘ulotlar bo‘yicha kursantlarning joriy nazorat, test sinovi (bosholang‘ich va yakuniy), malakaviy amaliyat (amaliy ko‘nikma, malaka mahorati), imtihon va yakuniy baholarini kiritish amalgalashiriladi [17,18,19, 20,21,22,23].



### 3.12. O‘zlashtirish moduli ma’lumotlarining iyerarxik tuzilmasi

**To‘lovlar moduli.** Tizimning “To‘lovlar” moduli kursantlarning o‘qish uchun to‘lovlarni amalga oshirilish monitoringini yuritish uchun xizmat qiladi. Ushbu modulda to‘lov topshiriqnomalari va schet-fakturalarni shakllantirish hamda kursantlarning o‘qish uchun to‘lovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish amalga oshiriladi [17,18, 20,21,22,23].

**Reyting moduli.** Tizimning “Reyting” moduli o‘qituvchilarning yil davomidagi faoliyati hamda amalga oshirgan ishlari natijasini baholash uchun xizmat qiladi. Bunda har bir o‘qituvchining ilmiy, amaliy va uslubiy faoliyatiga tegishli hujjatlar kiritib boriladi. Kiritilgan hujjatlar tegishli komissiya tomonidan baholanib o‘qituvchi reytingi aniqlanadi [17,18, 20,21,22].

Hozirgi vaqtida modellarni qurishda bir nechta metodologiyalardan foydalananiladi. Ulardan biri IDEF metodologiyasıdir [68; 76; 287-292-b., 72, 73, 93; 104-b.]. Ta’limni boshqarish axborot tizimlarini ishlab chiqish, modellashtirish, ma’lumotlar bazasini loyihalashtirish hamda algoritmlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bir nechta muhim metodologiyalar mavjud. Bu borada jumladan, ta’lim muassasasi o‘quv jarayoni boshqaruvi axborot tizimi biznes jarayonlarining Business Process Model and Notation (BPMN) metodologiyasi asosida yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [66;33-40-b, 67, 69-17-24-b.,70,71; 30-35-b.,73,72,74]. BPMN – tizim va ularning biznes jarayonlarini modellashtirish va boshqarish uchun yaratilgan bo‘lib, 2005-yilda OMG (Object Management Group) guruhi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan [70;75;79]. OMG – bu obyektga yo‘naltirilgan texnologiyalar va standartlarni ishlab chiqish va ilgari surish bilan shug‘ullanadigan konsorsium, ya’ni ishchi guruhi hisoblanadi. Bu korxona darajasida o‘zaro ishlaydigan, ya’ni platformadan mustaqil dasturlarni yaratish standartlarini ishlab chiqadigan notijorat tashkilotdir. Hozirgi kunda dasturiy ta’minotning eng yirik ishlab chiqaruvchilaridan bo‘lgan jami 800 ga yaqin tashkilot konsorsiumlari bilan hamkorlik qiladi [70;75;79]. 1989-yilda o‘n bitta kompaniya (shu jumladan, Hewlett Packard, Sun Microsystems, Canon, IBM va Apple) tomonidan tashkil etilgan. Asl OMG faqat o‘n uch a’zodan iborat edi. Uzoq vaqt davomida OMG (birinchi navbatda CORBA) tomonidan ilgari surilgan standartlarning kelajagi ba’zi doiralarda savol ostida edi.

Biroq hozirda konsorsium sakkiz yuzga yaqin kompaniyani o‘z ichiga oladi. Ular orasida nafaqat dasturiy ta’milot ishlab chiqaruvchilari, balki uning iste’molchilari ham bor. Masalan, American Airlines OMG asoschilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek IBM, Oracle va SAP kompaniyalari ham ushbu metodologiyadan foydalanishadi [70, 75, 79].

IDEF (I-CAM DEFinition yoki Integrated DEFinition) – murakkab tizimlarni modellashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha ICAM oilasining metodikasi (Integrated Computer-Supported Manufacturing) asosida turli xil murakkab tizimlar faoliyatining modellarini yaratish va tahlil qilish imkonini beradi [69; 47-b., 101].

### 3.1-jadval.

**Jarayonlarni modellashtirish metodologiyalarining solishtirma jadvali**

	Workflow	IDEF	DFD	UML	EPC	BPMN	BPEL
Arxitekturani qurish	-	+	+/-	-	+	-	-
Jarayonlari modellashtirish	+	+/-	+/-	-	+	+	-
Avtomatlashtirish	-	-	+/-	+	+	+	+
To‘g’ridan-to‘g’ri ijro qilish	-	-	-	-	-	+	+/-
<b>Jami:</b>	<b>1</b>	<b>1.5</b>	<b>1.5</b>	<b>1</b>	<b>2.5</b>	<b>3</b>	<b>1.5</b>

Axborot tizimida har bir foydalanuvchi tomonidan bajariladigan amallar ham bir necha jarayonlarga bo‘linadi. Bu jarayonlarning barchasi IDEF0 metodologiyasi asosida funksional jarayonlarga ajratilgan. IDEF0 metodologiyasi tizimni tuzilmasi va funksiyasini, shuningdek, bu funksiyalarni bog‘lovchi axborot va moddiy obyektlar oqimlarini ifodalovchi funksional modellarni tuzish uchun qo‘llaniladi [69; 47-b]. IDEF1 tizim funksionalligini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur

tuzilmalar va axborot oqimlari mazmunini ifodalovchi axborot modellarini tuzish uchun qo'llaniladi. IDEF2 tizimning vaqt bo'yicha o'zgaruvchan funksiyalari, axborotlari va resurslarini ifodalovchi dinamik modelni qurishga yordam beradi.

### **IDEF metodologiyasi turlari:**

IDEF0 – funksional modellashtirish.

IDEF1 – axborot modellashtirish.

DEF1X – MBni mohiyat-aloqa modeli asosida modellashtirish.

IDEF2 – imitatsion modellashtirish.

IDEF3 – texnologik jarayonlarni hujjatlashtirish.

IDEF4 – obyektga yo'naltirilgan modellashtirish.

IDEF5 – murakkab tizimlar ontologik tadqiqotlarining standarti.

IDEF6 – loyiha faoliyatini asoslashni modellashtirish.

IDEF7 – axborot tizimi auditini modellashtirish.

IDEF8 – foydalanuvchi interfeysini modellashtirish.

IDEF9 – biznes cheklavlarni aniqlash modeli.

IDEF10 – arxitektura bajarilishini modellashtirish.

IDEF11 – eksponantni axborot modellashtirish.

IDEF12 – Tashkiliy modellashtirish.


IDEF13 – uch sxemali xaritani loyihalashni modellashtirish.


IDEF14 – kompyuter tarmoqlarini loyihalashni modellashtirish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jarayonlar asosida tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish axborot tizimining IDEF0 metodologiyasi asosida funksional jarayonlarining axborot modeli qurilgan (3.13-rasm). Tizimning elektron yo'llanma olish axborot tizimi yordamida masofadan turib o'zining ixtisosligiga mos keladigan o'quv jarayoni tanlashi mumkin va kerakli hujjatlarini ilova qiladi. Hujjatlar ko'rib chiqilgandan so'ng kursantga qabul qilish to'g'risida kursant bileti beriladi va malaka oshirishga jalb qilinadi.

Kafedra tomonidan o'qituvchilar kontingenti shakllantiriladi va o'qituvchiga kursant guruhi biriktiriladi. O'quv jarayoni 2 xil ko'rinishda olib boriladi: budjet va shartnoma asosida. Budjet asosida o'qiydigan kursantlar belgilangan muddatda davlat buyurtmasi asosida malakasini oshiradi. Shartnoma asosida esa istalgan muddatda xohlov-chilar shartnoma shartlari asosida malakalarini oshirishlari mumkin.

### 3.13-rasm. Tibbiyot muassasaları xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimining IDEF modeli





**3.14-rasm. Tibbiyot muassasaları xodimlari tizimining malakasini oshirish axborot tizimining IDEF modeli**

3.13-rasmda keltirilgan jarayonlar asosida quyidagi vazifalar va axborot xizmatlari amalga oshiriladi: elektron yo'llanma olish; kursantlar kontingentini yuritish (fakultet, sikel va guruhi kesimida); o'qituvchilar kontingentini yuritish (fakultet, kafedra kesimida); o'quv jarayonini tashkil etish (sikllar, yillik kalendar reja, guruhi bo'yicha dars jadvali); kursantlarning davomat monitoringi (dars jadvali va elektron jurnal); kursantlarning o'zlashtirish monitoringi – sikllar asosida joriy nazorat, test sinovi (bosqlang'ich va yakuniy test sinovi), malakaviy amaliyat (amaliy ko'nikmani baholash, malaka mahorati, imtihon va yakuniy baho), reyting qaydnomasi; shartnoma ma'lumotlarini shakllantirish; o'qituvchilar faoliyatini baholash (o'qituvchilar reyting ko'rsatkichlari, hisobotlar); elektron hisobotlarni shakllantirish (kontingent, davomat, o'zlashtirish, qabul qilish, to'lovlar, guruhi, sikllar); tizim foydalanuvchilari to'g'risida ma'lumot olish; interaktiv onlayn xizmatlar (sikllar, o'quv grafiklari, kursantlar, o'qituvchilar)

Tizim ishtirokchilari sifatida administrator, o'quv bo'limi kafedra bo'limi, professor-o'qituvchi hamda kursant ishtirok etadilar. 3.14-rasmda o'quv jarayonini tashkillashtirish funksional modulining IDEF modeli qurilgan. Ushbu model asosida o'quv jarayoni tashkillashtiriladi, buning uchun birinchi navbatda, bir o'quv yili uchun sikel kontingenti shakllantiriladi. Siklga kursantlar guruhi biriktiriladi hamda dars jadvali shakllantiriladi. Kursantlarga belgilangan muddatda darslar olib boriladi. Sikl oxirida kursantlar bilimi baholanadi. O'zlashtirgan kursantlarga sikel yakunlangandan so'ng sertifikatlar beriladi.

### **3.3. Xodimlar bo'limi ish faoliyatini boshqarish axborot tizimining ma'lumotlar tuzilmasi va axborot modelini yaratish**

Bugungi kunga kelib pandemiya sharoitida ish faoliyatini axborot tizimlari orqali tashkil etish va boshqarish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Xodimlar bo'limi ish faoliyatini boshqarish axborot tizimi xodimlar bilan ishlash jarayonidagi barcha hujjatlarni elektron ko'rinishga o'tkazish va turli xil statistik ma'lumotlarni o'z vaqtida sifatli olishga yordam beradi [10;148-b]. Ushbu axborot tizimi veb texnologiyalar yordamida ishlab chiqilgan bo'lib, lokal va global


tarmoqda ishlaydi. Ushbu tizim orqali xodimlar to‘g‘risida barcha ma‘lumotlar saqlanadi va qayta ishlash jarayonlari amalga oshiriladi. Xodimlar bo‘limi ish faoliyatini boshqarish axborot tizimi lokal va global tarmoqda ishlaydi. Tizimni yaratishdan oldin ma‘lumotlar tuzilmasi hamda tashkil etuvchilarini yaratib olish zarur hisoblanadi.

Xodimlar bo‘limi ish faoliyatini boshqarish axborot tizimini bir nechta tashkil etuvchilari mavjud. Ular quyidagilar:

**Xodimlar** iyerarxik tuzilmasining tashkil etuvchilari: umumiylar ma‘lumot, harbiy ro‘yxat, yangi lavozimga tayinlash, mehnat shartnomasi, mehnat daftarchasi, qarindoshlik, mukofotlar, obyektivka ma‘lumotlari. **Shaxsiy tarkib** iyerarxik tuzilmasini tashkil etuvchilari: millatlar, oilaviy ahvoli, qarindoshlik turi, ilmiy unvonlar, ilmiy darajalar, mukofot turlari, mamlakat, viloyatlar, tumanlar. **Hujjatlar** iyerarxik tuzilmasini tashkil etuvchilari: hujjat tiplari, hujjat turlari. **Holatlar** iyerarxik tuzilmasini tashkil etuvchilari: ta‘til, xizmat safari, ishdan ozod etish, ta‘til turlari. **Tuzilmalar** iyerarxik tuzilmasini tashkil etuvchilari: shtat jadvali, bo‘lim ro‘yxati, lavozim ro‘yxati. **Ta‘lim** iyerarxik tuzilmasini tashkil etuvchilari: o‘quv muassasalari, muassasa tiplari, ta‘lim tiplari. **Hisobotlar** iyerarxik tuzilmasini tashkil etuvchilari: ma‘lumotli hisobotlar, statik hisobotlar.

Xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni shakllantirishda xodimni qaysi bo‘lim va lavozimga qanaqa shtat birligida ishga qabul qilish jarayoni amalga oshiriladi. Shu sababli axborot tizimining “Tuzilmalar” qismida axborot tuzilmasini yaratishimiz shart bo‘ladi.

Xodimlar bo‘limi ish faoliyatini boshqarish axborot tizimi bevosita xodimlar bilan ishlashga mo‘ljallanganligi sababli, xodim to‘g‘risida ma‘lumot shakllantirib olinadi. Xodim to‘g‘risida ma‘lumotlar belgilangan me‘yoriy hujjatlar asosida talab qilinadi va tizimga kiritiladi. Xodim to‘g‘risida ma‘lumotlar shakllantirib olingandan so‘ng boshqa amallarni bajarish mumkin bo‘ladi. Quyidagi 3.15 va 3.16-rasmida xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni shakllantirish tuzilmasi keltirib o‘tilgan.



**3.15-rasm. Xodimlar ma'lumotlarining iyerarxik tuzilmasi**

бўлим		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>name_ru</b>	varchar(255)
3	<b>name_uz</b>	varchar(255)
4	<b>name_en</b>	varchar(255)
5	<b>Type</b>	int
6	<b>salary_status</b>	int


ходим		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>first_name</b>	varchar(255)
3	<b>second_name</b>	varchar(255)
4	<b>third_name</b>	varchar(255)
5	<b>dep_id</b>	int
6	<b>doc_id</b>	int

таблим		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>employee_id</b>	int
3	<b>edu_type</b>	varchar(255)
4	<b>univer_id</b>	varchar(255)
5	<b>grad</b>	int
6	<b>special</b>	varchar(255)
7	<b>faculty</b>	varchar(255)
8	<b>diplom_number</b>	varchar(255)

хуражатлар		
№	fields	type
1	<b>id</b>	int
2	<b>type</b>	varchar(255)
3	<b>name</b>	varchar(255)
4	<b>kind</b>	int
5	<b>number</b>	int
6	<b>doc_date</b>	date
7	<b>desc</b>	text
8	<b>step</b>	int

**3.16-rasm. Xodimlar ma'lumotlari tuzilmasi**

Xodimlar to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirib bo'lgandan so'ng xodimlar bilan ishlash jarayonida duch keladigan holatlarni ko'rishimiz mumkin. Quyidagi 3.17-rasmda tizimning "Holatlar" qismini iyerarxik tuzilmasi keltirib o'tilgan.



**3.17-rasm. Xodimlar holatlari ma'lumotlarining iyerarxik tuzilmasi**

Ushbu xodimlar bo'limi ish faoliyatini boshqarish axborot tizimi to'liq xodimlar bilan ishlashga qaratilgan bo'lib, barcha zaruriy ma'lumotlar hisobga olingan [69; 47-b]. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jarayonlar asosida xodimlar bo'limi ish faoliyatini boshqarish axborot tizimining IDEF metodologiyasi asosida funksional jarayonlarining axborot modeli ishlab chiqildi.

### **3.4. Tinglovchilar bilimlarini baholash axborot tizimining ma'lumotlar tuzilmasi va axborot modelini yaratish**

Tinglovchilarning bilimini baholash va monitoring qilish axborot tizimi zamонавиј veb texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, lokal va global tarmoqlarda foydalanishga mo'ljallangan. Tizim yordamida masofadan turib ixtiyoriy sondagi xodimlar, tinglovchilar, o'quvchi va talabalar uchun attestatsiya va test jarayonlarini tashkil etish mumkin. Ushbu tizimni ixtiyoriy sohaga joriy qilish va undan attestatsiya jarayonlarida foydalanish mumkin [21; 1-2-b., 22;23].

Bugungi kunda bilimlarni baholash uchun turli toifadagi dasturlar mavjud bo'lib, ammo ularning barchasi bir qator kamchiliklarga ega [54; 126-130-b.]. Bu esa o'z navbatida, bunday tizimlardan foydalanishni imkoniyatini cheklaydi. Ushbu dasturni yozishdan oldin bilimlarni baholashning turli usullari va ularning kamchilik va afzalliklari ko'rib chiqildi. Dasturdan foydalanishning turli usullari

o'rganilib, natijada testlash tizimining umumiyligi konsepsiysi ishlab chiqildi.

Ushbu dastur klient – server texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ikki rejimda ishlaydi: Administrator rejimi tizimni boshqarish bilan bog'liq barcha amallarni bajarish mumkin, klient rejimi esa faqatgina test topshirish bilan bog'liq amallarni bajaradi [23;74-77-b.].

Axborot tizimi quyidagi asosiy jarayonlardan tashkil topadi: Test topshiruvchilar guruhlarini shakllantirish; test topshiruvchilar haqidagi ma'lumotlarni kiritish; test topshiruvchilar ma'lumotlarini fayldan yuklab olish; test yo'nalishlarini hamda ularning bo'limlarini shakllantirish va boshqarish; yo'nalishlar bo'yicha masalalarini va ularning javoblarini kiritish va boshqarish; masalalarini va ularning javoblarini shakllantirishda multimedia ma'lumotlaridan foydalanish; test masalalarini va ularning javoblarini fayldan yuklab olish; test vaqtida individual test variantlarini shakllantirish; bir va ko'p to'g'ri javobli test variantlarini shakllantirish; test vaqtida masalalarini tasodifiy tarzda joriy qilish; test natijalarini saqlash va ishlov berish; ko'p masalali va ko'p foydalanuvchili rejimida ishlash; ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash; barcha turdag'i ma'lumotlarni Microsoft Excel dasturiga eksport qilish.


Tizimning asosiy afzalligi, uning soddaligi, foydalanish uchun juda qulayligi hamda test vaqtida qatnashchilarning soni qancha bo'lishidan qat'iy nazar har bir kishi uchun individual variant shakllashtirishi hisoblanadi [23;74-77-b.]. Tizim HTML dasturlash tili, CSS – kaskadli jadval stillari, PHP – dasturlash tili, MySQL – ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi hamda Apache – veb-serveri asosida yaratilgan [46;244-b., 111;400-b., 112; 105-b.].

Tizimning sozlash ishlarini administrator amalga oshiradi. Tizimga savollarni kiritish va test jarayonini o'tkazish moderator vazifasiga kiradi. Quyidagi 3.18-rasmida tizimning umumiyligi ma'lumotlarining iyerarxik tuzilmasi keltirib o'tilgan [23;74-77-b.].

Ushbu jarayonda fanlar bloklarga bo'linadi va test savollarini bloklar bo'yicha shakllantiriladi. Test savollarini shakllantirishda har bir masalaga mos ravishda javoblar variantlari ham kiritiladi.

Tinglovchilar bilimlarni baholash jarayonida tegishli fanning har bir blokidan savollar to'plami va ularning mos ravishda javoblar

variantlari generatsiya qilinib, har bir tinglovchi individual variant shaklida taqdim etiladi.



3.18-rasm. Tizim ma'lumotlarining iyerarxik tuzilmasi

Axborot tizimining kirish va chiqish ma'lumotlari to'plamini hamda ular ustida bajariladigan asosiy funksiyalarini belgilab olish uchun IDEF metodologiyasi asosidagi tizimning funksional modeli ishlab chiqilgan. Tinglovchilar bilimlarini baholash axborot tizimining ushbu IDEF modeli axborot tizimini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, axborot tizimlarini yaratishda uning tuzilmasi va arxitekturasini to'g'ri tashkil etish hamda tizimni yaratish ma'lum bir metodologiyalardan foydalanish tizimning yashash siklini uzaytiradi hamda tizimning ommabopligini ta'minlab beradi.

Tibbiyot muassasalarini xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kompleks axborot tizimini loyihalashtirish bosqichida dastur protseduralar bo'yicha tavsiflandi hamda har bir modulni amalga oshirish uchun algoritm tanlandi va baholash ishlari bajarildi. Loyihalashtirish uchun tizimga bo'lgan talablar asos qilib olindi [14;72-73-b.].

Axborot tizimining ma'lumotlar oqimidan foydalanib loyihalashda yuqoridaan pastga qadamma-qadam detallashtirish strukturali loyihalash

elementlaridan iborat bo‘ladi va ular quyidagicha tashkil etildi: ma’lumotlar oqimini ekspertiza qilish va ma’lumotlar oqimi grafigida aks ettirildi, ma’lumotlar oqiminining kiritiladigan markaziy va chiqariladigan elementi tahlil qilindi, dasturning iyerarxik tuzilmasi tuzildi, dastur tuzilmasini detallashtirish ishlari amalga oshirildi.


Tibbiyot muassasalarini xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kompleks axborot tizimi loyihasining strukturaviy tahlil texnologiyasi tizimning obyektlari o‘rtasidagi iyerarxik funksional aloqalarni tuzishda maxsus grafik vositadan foydalaniib, strukturaviy tahlil qilishga asoslangan.

## **IV BOB. TIBBIYOT MUASSASALARI XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISH KOMPLEKS AXBOROT TIZIMINI YARATISH**

### **4.1. Tibbiyot muassasalari xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimida kechadigan jarayonlar va natijalar**

Hozirda davlat organlarining barcha sektorlarida axborot texnologiyalarining kirib kelishi va joriy etilishi sohalarda sifatli xizmat ko'rsatishga xizmat qilmoqda. Axborot resurslaridan erkin foydalanish natijasida interaktiv xizmatlarni tashkil etish mumkin. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish zarurki, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasida axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanishni ta'minlash belgilab o'tilgan [2].

Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimi tuzilmasi va unda kechadigan axborot jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish o'quv jarayoni sifatini oshirish, ma'lumotlar olish jarayonini tezlashtirish hamda sarf-xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimida kechadigan axborot jarayonlarining tuzilishi quyidagi 4.1-rasmda keltirib o'tilgan.




**4.1-rasm. Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish axborot tizimida kechadigan umumiy jarayonlar**

Tizimdan foydalanishda har bir tinglovchidan malaka oshirish sikllariga yozilish uchun birinchi navbatda, ro'yxatdan o'tib, elektron yo'llanma olish talab etiladi. Elektron yo'llanma olish va ro'yxatdan o'tib hujjatlarni topshirish ikki xil usulda amalga oshiriladi [20; 1-5-b.]. Masofadan turib ro'yxatdan o'tish va ta'lim muassasasiga kelib hujjatlarni topshirishi mumkin bo'ladi. Masofadan turib sikllarga onlayn tarzda elektron yo'llanma olish uchun ariza yuborishda shaxsiy identifikatsiya raqamini kiritish, shaxsiy ma'lumotlar va siki ma'lumotlarini kiritish hamda hujjatlar to'plamini ilova qilish, kiritilgan va ilova qilingan ma'lumotlarni tekshirish hamda tasdiqlash va arizani yuborish talab etiladi. Sikllar ikki xil ko'rinishda budget va xo'jalik hisobida amalga oshiriladi. Har ikki turdag'i siki uchun o'quv bo'limi tomonidan alohida mutaxassis biriktiriladi. Mutaxassislar o'zlarining profillari orqali tinglovchilar arizasini ko'rib chiqadi va yuborilgan hujjatlar to'plamining malaka talablariga mosligini tekshiradi. Barcha ma'lumotlar to'g'ri bo'lgan taqdirda onlayn tarzda tinglovchilar siklga biriktiriladi hamda tinglovchiga tinglovchi biletini jo'natiladi. Xo'jalik hisobidagi tinglovchilarga esa shartnomaga beriladi. Bu turdag'i tinglovchilar shartnomasi pulini to'lagandan so'ng siklga biriktiriladi.

Ushbu tizimni ishlab chiqishda BPMN metodologiyasi asosida BPM-sxemalar shakllantirildi va funksiyalar ro'yxati ishlab chiqildi. Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish axborot tizimi biznes jarayonlarining BPMN modeli ishlab chiqildi. Quyida keltirilgan 4.2-rasmida tibbiyot xodimlari malakasini oshirish o'quv jarayonini tashkil etishning BPMN modeli keltirib o'tilgan [66;33-40-b., 67, 69-17-24-b., 70,71; 30-35-b.,74].

Yuqorida ko'rsatilgan sxema asosida o'quv faoliyati tashkil etiladi hamda nazorati olib boriladi. Birinchi o'rinda, fanning o'quv dasturi yordamida ishchi dastur yaratiladi. So'ngra ushbu dasturlar yordamida siklning yillik o'quv rejasini shakllantiriladi hamda tizimga kiritiladi. Tizimda sikllarning yillik o'quv rejasini shakllangan so'ng, tinglovchilar kontingenti shakllantiriladi hamda talabgorning talabiga qarab siklga biriktiriladi. Sikllarning yillik o'quv rejasini asosida dars jadvali shakllantiriladi. Ushbu dars jadvali asosida o'quv jarayoni boshlanadi, davomat va o'zlashtirish hisobotlari yuritilib boriladi. Siklni muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchilarga sertifikat beriladi. Tinglovchi

xohlagan payt yana boshqa sikllarda o‘z malakasini oshirishi ham mumkin bo‘ladi.




**4.2-rasm. Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish o'quv jarayonini tashkil etishning BPMN modeli**

Ushbu axborot tizimidan foydalanishda kafedra, o'qituvchilar, o'quv bo'limi (budget hisobida), o'quv bo'limi (xo'jalik hisobida) va kursantlar modullari va ularda kechadigan jarayonlarni ko'rib o'tamiz.


Kafedra mudiri modulida kafedra professor-o'qituvchilarini ro'yxatdan o'tkazish va ularga tizimdan foydalanish bo'yicha login va

parollarini berish amallari bajariladi. So'ngra mashg'ulotlarni boshlash uchun dars jadvalarini shakllantirib boradi. Dars jadvali asosida tizimda avtomatik tarzda o'qituvchilarining yuklamalarining nazorati olib boriladi. Kafedra mudiri profilida kechadigan jarayonlar quyidagi 4.3-rasmda keltirib o'tilgan.




**4.3-rasm. Kafedra mudiri modulida kechadigan jarayonlar**

O'qituvchilar modulida har bir professor-o'qituvchi o'ziga tegishli guruhlar va kursantlarga o'z fani bo'yicha mashg'ulotlar olib boradi. Mashg'ulot davomida davomat holatini yuritish hamda o'zlashtirish natijalarini kiritib borishi talab etiladi. Professor-o'qituvchi o'z profilida ilmiy-uslubiy ishlarini aks ettirib boradi. Natijada esa kafedra va ta'lif muassasasi miqyosida professor-o'qituvchining reytingi shakllanib boradi. O'qituvchi profilida kechadigan jarayonlar quyidagi 4.4-rasmda keltirib o'tilgan




**4.4-rasm. O'qituvchilar modulida kechadigan jarayonlar**

O'quv bo'limi moduli (budget hisobida)da budget hisobidagi sikllar shakllantiriladi, kursantlarga yo'llanmalar beriladi hamda kursantlar kontingenti shakllantirilib, sikllarga biriktiriladi. Kursantlarga siklga qabul qilinganligi to'g'risida kursant biletini beriladi. Budget hisobidagi o'quv bo'limi modulida kechadigan jarayonlar quyidagi 4.5-rasmida keltirib o'tilgan.



**4.5-rasm. O'quv bo'limi moduli (budget hisobida)da kechadigan jarayonlar**

O'quv bo'limi moduli (xo'jalik hisobida)da sikllar shakllantiriladi, talabgorlarga shartnomalar beriladi. Shartnoma shartlarini bajargan kursantlar ro'yxatdan o'tkaziladi hamda ularni sikkilarga birkirtadi. [16;123-126-b., 17;1-4-b., 18;12085-12090-b.]. Ushbu kursantlarga ham kursant bileyti beriladi va mashg'ulotlarga ruxsat etiladi. Quyidagi 4.6-rasmda O'quv bo'limi moduli (xo'jalik hisobida)da kechadigan jarayonlar keltirib o'tilgan.




**4.6-rasm. O'quv bo'limi moduli (xo'jalik hisobida)da kechadigan jarayonlar**

Kursantlar modulida asosan, kursant haqida ma'lumotlar shakllantiriladi. O'quv bo'limi tomonidan kursantlar ro'yxatga olinganda kursant haqidagi asosiy ma'lumotlar kiritiladi. Kursant o'z PNFL kodi bilan shaxsiy kabinetiga kiradi va o'ziga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlarni to'ldirib boradi. Kursantlarning ushbu ma'lumotlari asosida respublika miqyosida malaka oshirgan shifokorlar reestri shakllanib boradi [16;123-126-b., 17;1-4-b., 18;12085-12090-b., 19;115-119-b., 20;1-5-b., 21;174-177-b., 22,23].

Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida kasbiy qayta tayyorlash - KQT, umumiyl malaka oshirish – UMO, mavzuiy malaka oshirish – MMO, ixtisoslashtirish – Ixtisos, masofadan turib o'qitish sikllari – MTO'S, sayyor sikl – SS, COVID-19 kabi sikllar mavjud.

Tibbiyot xodimlari malakasi oshirish axborot tizimidan foydalanishda foydalanuvchilar login va parollari orqali tizimga kiradi. Quyidagi 4.7-rasmida administrator va moderatorlar profilining tizimga kirish oynasi keltirib o'tilgan [90].



**4.7-rasm. Foydalunuvchilarning tizimga kirish oynasi**

Ushbu tizimdan foydalanishda rektor, prorektor, dekan, kafedra mudiri, o'qituvchi, o'quv bo'limi (budget hisobida), o'quv bo'limi (xo'jalik hisobida), o'quv bo'limlarining metodistlari, kursant, kutubxona, yotoqxona kabi profillar majud. Ushbu profil yordamida foydalunuvchilar tegishli rollar orqali tizimda o'ziga belgilangan vazifalarni amalga oshiradi.


Quyidagi 4.8-rasmida administrator oynasi keltirib o'tilgan bo'lib, administrator rolidagi foydalunuvchi tizimning barcha sozlashlarini amalga oshiradi hamda axborot tizimidagi texnik faoliyatni nazorat qilib boradi [18,90, 19;115-119-b., 20;1-5-b., 21;174-177-b., 22,23].

Царурти бўйича тизимдаги профиллар					
№	Номи	Парол	Соҳиб	Тарз	Логотип
1	Administrator	2019-022	TAJIBIY PROFILNARMA OQITUVCHI	Онлайн тизимдаги профиллар менюси	4.8.1.1. Администратор тизим менюси 21.4.2020 16:47:5000 масли
2	Administrator	21.09.023	TAJIBIY PROFILNARMA OQITUVCHI	Онлайн тизимдаги профиллар менюси	4.8.1.2. Администратор тизим менюси 21.9.2020 16:47:5000 масли
3	Administrator	22.09.023	TAJIBIY PROFILNARMA OQITUVCHI	Онлайн тизимдаги профиллар менюси	4.8.1.3. Администратор тизим менюси 22.9.2020 16:47:5000 масли
4	Administrator	23.09.023	TAJIBIY PROFILNARMA OQITUVCHI	Онлайн тизимдаги профиллар менюси	4.8.1.4. Администратор тизим менюси 23.9.2020 16:47:5000 масли

**4.8-rasm. Administrator profilining oynasi**


Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha profillarning xuddi shunaqa alohida foydalanish oynalari mavjud [17; 1-4-b., 27].

Hozirgi kunda tibbiyot muassasalari xodimlari malakasini oshirish ta'lim muassasasi respublika miqyosida tibbiyot xodimlarini malaka oshirish jarayonlarini tashkil etadi va nazoratini olib boradi. Ushbu ta'lim muaassasasida jami 5ta fakultet va 57 ta kafedra mavjud. Ushbu kafedralarda jami 425 ta professor-o'qituvchi faoliyat olib boradi. Eng muhim va e'tiborli jihat shundan iboratki, ushbu kafedralar turli xil shifoxonalarda tashkil etilgan. Shuning uchun tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasi oshirish ta'lim muassasasida axborot tizimlarini joriy qilish dolzARB masala hisoblanadi. Ushbu ta'lim muassasasida o'quv jarayonlar sikllarga asoslangan dars jadvali asosida olib boriladi. Siklar 18, 24, 36, 72, 108, 144, 288, 504 soatli hamda 2 oy, 3.5 oy, 5oy va 6 oylik ko'rinishda tashkil etiladi. Bir o'quv yilda yuqorida ko'rsatilgan sikllarning barchasi tashkil etiladi va o'quv jarayoni olib boriladi. Har bir siklga alohida dars jadvali shakllantiriladi va o'quv jarayoni tashkil etiladi hamda kursantlarning davomati va o'zlashtirish natijalari yuritiladi. Malaka oshirish ta'lim muassasasida o'quv jarayoni boshqa ta'lim muassasalariga nisbatan tubdan farq qiladi. Ya'ni aniq va bir xil ketma-ketlikka rioya qiladigan o'quv jarayoniga ega emas. Shuning uchun ushbu sohada axborot tizimlarini joriy qilishning muhimligini ko'rsatadi [19;115-119-b., 20;1-5-b., 21;174-177-b., 22,23]. Tibbiyot muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasasida 2018/2019-o'quv yillarda 1204 ta, 2019/2020-o'quv yillarda esa 1254 ta sikl tashkil etilgan va mashg'ulotlar olib borilgan. Yaratilgan axborot tizimi orqali quyidagi 4.9-rasmda natijaviy ma'lumotlarni grafiklarda ham ko'rishimiz mumkin.



4.9-rasm. Ta'lim muassasasidagi sikllar soni


Yuqoridagi grafikdan ko‘rishimiz mumkinki 2019/2020-o‘quv yilida 2018/2019-o‘quv yiliga nisbatan sikllar soni 50 taga oshib, umumiylis hisobda 4,2% ga oshgan. Demak, axborot tizimini joriy qilish o‘quv jarayoni tashkil qilish ko‘lamini yanada kengaytirdi. Shu o‘rinda ushbu axborot tizimi orqali bir nechta statistik ma’lumotlarni keltirishimiz mumkin. Quyidagi 4.10-rasmida keltirilgan grafikda 2018/2019-o‘quv yilida fakultetlar kesimida malakasini oshirgan kursantlar to‘g‘risida ma’lumot keltirib o‘tilgan [17;1-4-b.].



**4.10-rasm. 2018/2019-o‘quv yilida fakultet kesimida malaka oshirganlar soni**

Quyidagi 4.11-rasmida keltirilgan grafikda esa 2019/2020-o‘quv yilida fakultetlar kesimida malakasini oshirgan kursantlar to‘g‘risida ma’lumot keltirib o‘tilgan [17;1-4-b.].


Fakultetlar kesimida qaraydigan bo‘lsak, tinglovchilarni qabul qilish 2019/2020-o‘quv yilida 2018/2019-o‘quv yiliga nisbatan terapiya fakultetida 1,6 marta, pediatriya fakultetida 1,1 marta, tibbiy profilaktika fakulteti 1,3 marta, menedjment, ijtimoiy va birlamchi sog‘liqni saqlash fakultetida 1,7 marta, jarrohdlik fakultetida 1,7 martagacha o‘sish kuzatilgan. Bu natijalarga bevosita axborot tizimlarini joriy qilish orqali erishildi [27].



**4.11-rasm. 2019/2020-o'quv yilida fakultet kesimida malaka oshirganlar soni**

Sikl turi bo'yicha qaraydigan bo'lsak, tinglovchilarni qabul qilish 2019/2020-o'quv yilida 2018/2019-o'quv yiliga nisbatan ixtisoslik bo'yicha 6,8 marta, umumiy malaka oshirish bo'yicha 1,2 marta, mavzuiy malaka oshirish bo'yicha 1,6 marta, kasbga qayta tayyorlash bo'yicha 1,3 martaga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi 4.12-rasmda keltirilgan grafikda 2018/2019 va 2019/2020-o'quv yillarida jami malaka oshirgan kursantlar to'g'risida ma'lumot keltirib o'tilgan.



**4.12-rasm. 2018/2019 va 2019/2020-o'quv yillarida jami malaka oshirgan kursantlar soni**

2018/2019 va 2019/2020-o'quv yillarda tinglovchilar sonini tahlil qiladigan bo'lsak, umumiyligi hisobda 1,5 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Albatta, bunday kontingent boshqaruvini amalga oshirishda axborot tizimlarining o'rni beqiyos hisoblanadi.


Tibbiyot muassasalarini xodimlarining malakasini oshirish ta'lim muassasasi belgilangan reja asosida tibbiyot tizimining barcha jabhalarida xizmat qiladigan mutaxassislarini belgilangan muddatlarda malakalarini oshirish jarayonlarini tashkil etadi va nazoratga olib boradi. Nafaqat respublika tibbiyot muassasalarida xizmat olib boradigan tibbiyot xodimlari balki, boshqa sohada xizmat qiladigan tibbiyot hodimlari hamda xususiy tibbiyot muassasalarini xodimlarining ham malakalarini oshirishda amaliy va uslubiy yordamlarini berib boradi.

#### **4.2. Elektron yo'llanma olish axborot tizimida kechadigan jarayonlar va natijalar**


Yuqorida bo'limlarda ta'kidlab o'tilgandek, o'quv sikllari ikki turda tashkil etiladi. Birinchisi, bu budjet asosida, ikkinchisi esa xo'jalik hisobida tashkil etiladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, budjet hisobida malaka oshirmoqchi bo'lган talabgorlar yo'llanma olishlari zarur hisoblanadi. Buning uchun ular hujjatlar to'plami bilan malaka oshirish muassasasiga kelib, ariza topshirishlari kerak bo'ladi. Birinchi o'rinda, talabgorlarning o'z faoliyatlarini olib boradigan muassasa yoki tashkilotning buyrug'i bo'lishi kerak. So'ngra talabgorlar o'z hujjatlarini taqdim etadi, malaka oshirish muassasasi ularning arizalarini va hujjatlarini ko'rib chiqadi va mosligini tekshiradi. Agar hujjatlar to'plami to'liq va malaka oshirish yo'nalishiga mos kelsa, talabgorga yo'llanma beriladi hamda sikelga biriktiriladi. Ushbu jarayoni tashkil qilishda talabgor malaka oshirish muassasasiga kamida uch marta kelishi talab etiladi (masalan, qanaqa hujjat kerakligini bilish, hujjat topshirish, yo'llanma olish va o'qishga kelish). Ushbu jarayon o'z navbatida, talabgor uchun sarf-xarajatlarning oshishiga olib keladi. Quyidagi 4.13-rasmida an'anaviy tarzda hujjat topshirish jarayoni aks ettirilgan.

Kursantlarning sarf-xarajatlari va vaqtlarini tejash maqsadida elektron yo'llanma olish jarayoni avtomatlashtirildi, endi talabgor yo'llanma olish uchun elektron tarzda hujjat topshiradi. Bu o'z

navbatida, sarf-xarajatlarni bir necha marta kamaytirishga olib keladi. Tizimga kirishda talabgorning shaxsiy identifikatsiya raqamini kiritish talab etiladi. Bu raqam o‘z navbatida talabgorning logini hisoblanadi.



**4.13-rasm. Ana’naviy tarzda yo’llanma olish uchun hujjat topshirish**



**4.14-rasm.Elektron yo'llanma moduli orqali hujjat topshirish**

Talabgorlar elektron yo'llanma olish uchun ariza berishda axborot tizimining elektron yo'llanma moduliga murojaat qiladi va shaxsiy identifikasiya raqamlari yordamida ro'yxatdan o'tish amalga oshiriladi. Ro'yxatdan o'tish jarayonida talab etilgan ma'lumotlar va tegishli hujjatlar to'plami taqdim etiladi [20; 1-5-b., 28].

Tibbiyot muassasalarini xodimlarining malakasini oshirish jarayonida asosiy e'tibor budget asosida malaka oshirishga qaratiladi. Odatda, budget asosida malaka oshirish yo'llanma va qat'iy talablar asosida amalga oshiriladi. Belgilangan talablarga mos kelmaydigan tinglovchiga o'z hisobidan malaka oshirish yoki ixtisoslik olish taklif etiladi. Ushbu jarayonning shaffofligini ta'minlash uchun axborot tizimida qaror qabul qilishga ko'maklashish maqsadida tinglovchilarni va sikllarni klassifikatsiyalash mezonlar ishlab chiqildi va ushbu mezonlar asosida budget hisobidan malaka oshirishda elektron yo'llanma olish jarayonning axborot modeli ishlab chiqildi.

Klassifikatsiyalash mezonlari asosan tinglovchilar ma'lumotlari va sikllar klassifikatori asosida ishlab chiqildi. Bunda dastlabki bosqichda tinglovchilarni toifalash mezoni kiritilgan bo'lib, unda tinglovchilarning quyidagicha toifalari qaralgan:

T – oddiy tinglovchi;

HT – harbiy tinglovchi;

MT – malaka oshirgan tinglovchi;

(T) oddiy tinglovchi toifasi - birinchi marta tizimdan ro'yxatdan o'tib, malaka oshirgan tinglovchiga tegishli bo'lib, tinglovchining to'liq ma'lumotlarini kiritish talab etiladi.

(HT) harbiy tinglovchi toifasi - bu ma'lum bir turdag'i cheklovlanri hisobga olgan holda birinchi marta tizimdan ro'yxatdan o'tgan harbiy tinglovchilar tushuniladi.

(MT) malaka oshirgan tinglovchi toifasi - bu tizim orqali ro'yxatdan o'tgan, ammo oldin kamida bir marta malaka oshirgan tinglovchilar ma'lumotlarini qamrab oladi. Ushbu tinglovchilarni toifalash mezoni malaka oshirish jarayonini tashkil etish va nazorat qilishda talabgorlarga ma'lum qulayliklarni taqdim etadi.

Navbatdagi bosqichda esa tinglovchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni amalga oshiriladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, tinglovchidan 54 turdag'i ma'lumotlarni taqdim

etish talab etiladi. Ushbu taqdim etilgan ma'lumotlar turlarining ma'lum qismi tinglovchilarning sikl bo'yicha malaka oshirish turini belgilash maqsadida qaror qabul qilishga ko'maklashish mezonlarini ishlab chiqishda qatnashadi.

Quyida tinglovchining malaka oshirishga doir bo'lgan ma'lumotlari asosida qaror qabul qilishda ishtirok etadigan mezonlar belgilab olingan:

TI – tinglovchining F.I.Sh

DM – diplom bo'yicha mutaxassislik

TY – o'qishni tugatgan yili

HI – hozirgi ish joyi

L – lavozimi

TM – tanlagan mutaxassisligi

SI – soha bo'yicha ish boshlagan yili

UI – umumiy ish staji

US – uzlucksiz ish staji

I – ixtisoslik

T – toifasi

TA – toifa amal qilish muddati

OI – oxirgi marta malaka oshirgan yili

JY – ro'yxatdan o'tgan vaqt (joriy yil)

Keltirilgan mezonlar asosida quyidagi shartlarni bajarish orqali budget hisobidan malaka oshirishga ruxsat berish bo'yicha qaror qabul qilishga ko'maklashish amalga oshiriladi:

(JY - TY) >3; - ro'yxatdan o'tgan vaqt (joriy yil) bilan o'qishni tugatgan yili o'rtaсидаги farq 3 yildan ortiq bo'lishi kerak.

DM = TM; – diplom bo'yicha mutaxassislik bilan tanlagan mutaxassisligi mos bo'lishi kerak;

(JY-OI) <5; – ro'yxatdan o'tgan vaqt (joriy yil) bilan oxirgi marta malaka oshirgan vaqt o'rtaсидаги farq 5 yildan kam bo'lishi kerak;

(UI-US) <3; – umumiy va mutaxassislik bo'yicha ish satjidagi farq 3 yildan kam bo'lishi kerak;


(SI-JY) <5; – soha bo'yicha ish boshlagan yili bilan ro'yxatdan o'tgan vaqtining (joriy yil) farqi 5 yildan kam bo'lishi kerak;

(TA-JY) < 3 – toifa amal qilish muddati va ro'yxatdan o'tgan vaqt orasidagi farq 3 yildan kam bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan qaror qabul qilishga ko'maklashish shartlarning kamida bittasi bajarilmagan holda tinglovchi o'z hisobidan malaka oshirishga yo'naltiriladi.

Malaka oshirish sohasini aniqlash bo'yicha qaror qabul qilishda malaka oshirish sikllari klassifikatorining quyidagi mezonlari ishtirok etadi: SN – sikl nomi; SS – sikl sohasi; ST – sikl turi; SB – siklning boshlanish vaqt; ST – siklning tugash vaqt; SD – sikl davomiyligi.

Ushbu klassifikator parametrlari orqali tinglovchining malaka oshirishi sikllari aniqlanadi. Sikllar klassifikatorida keltirilgan mezonlar asosida tinglovchining malaka oshirish jarayonidagi rolini belgilab beradi. 4.15-rasmda keltirilgan algoritm asosida qaror qabul qilishga ko'maklashish mexanizmini qo'llagan holda tinglovchilarning onlayn hujjat topshirish jarayonida ularning budjet yoki o'z hisobidan qaysi siklda malaka oshirish mumkinligini aniqlash amalga oshiriladi.




**4.15-rasm. Tinglovchilarning malaka oshirish turini tanlash bo'yicha qaror qabul qilish algoritmi**

Bunda 1) talabgor talab etilgan ma'lumotlarni va tegishli hujjatlarni tizimga kiritadi, 2) 54 turdag'i ma'lumotlar va ularga tegishli hujjatlardan iborat axborot oqimi tizimda yuzaga keladi, 3) ma'lumotlar dastlabki ekspertizadan o'tkaziladi va tasdiqlanadi,

4) axborot tizimi ekspertlar tomonidan shakllantirilgan malaka oshirish talablari va malaka oshirish siklari klassifikatori asosida qaror qabul qilish uchun mas'ul mutaxassisiga tegishli tavsiyalarini ishlab chiqadi va taqdim etadi, 5) mas'ul mutaxassis tomonidan tinglovchi tanlangan siklga qabul qilinadi yoki rad etiladi, 6) o'qishga ruxsat beriladi.


Tinglovchi tomonidan onlayn ro'yxatdan o'tish jarayonida taqdim etilgan ma'lumotlar va tegishli hujjatlar o'quv bo'limining mas'ul mutaxassisini tomonidan dastlabki ekspertizadan o'tkaziladi. Tizim tomonidan qaror qabul qilishga ko'maklashish uchun ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida mas'ul mutaxassis talabgorga yo'llanma yuborish, keyingi siklga qoldirish, malaka oshirishni rad etish kabi qarorlarni qabul qiladi va tegishli amallarni bajaradi (4.16-rasm).



#### 4.16-rasm. Hujjatlarni ko'rib chiqish oynasi

Ushbu zarur maydonlarning ma'lumotlari kiritilgandan so'ng jo'natish tugmasi bosiladi va ushbu ma'lumotlar o'quv bo'limi profilida namoyon bo'ladi. O'quv bo'limi talabgorning barcha ma'lumotlarini tekshiradi hamda jo'natilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi. Agar hujjatlar mos kelmasa, talabgorga rad javobini beradi hamda sababini izohda yozib qo'yadi. Talabgorning barcha hujjatlari tanlangan siklga mos kelsa, shu sikliga biriktiradi. Agar siklda joy yo'q bo'lsa, xuddi shu siklning navbatdagi vaqtiga biriktirib qo'yadi hamda talabgorga bu haqda xabar yozadi hamda kursant biletini jo'natadi. Kursant bileyti tizimda avtomatik tarzda shakllanadi. Talabgor login va paroli orqali shaxsiy kabinetiga kirganda unga tanlagan sikli hamda uning qachon

boshlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi hamda kursant biletini ko'chirib oladi. O'qish jarayoni boshlanganda tinglovchi o'zining kursant biley bilan ta'lim muassasasiga yetib keladi va o'quv jarayonida qatnashadi. O'quv jarayonini muvaffaqiyatli tugatgan taqdirda sertifikat olishi mumkin bo'ladi. 4.17-rasmda elektron yo'llanma axborot tizimida kechadigan BPMN jarayonlar keltirib o'tilgan [20; 1-5-b., 28].



**4.17-rasm. Elektron yo'llanma olish axborot tiziminining BPMN modeli**

Ushbu tizim orqali 2019/2020 o'quv yilining mart-may oylarida jami 517 nafar talabgor ro'yxatdan o'tgan, shundan 235 nafarining hujjatlari to'g'ri kelganligini sababli tanlangan siklga biriktirilgan va o'z malakalarini oshirgan [20; 1-5-b., 28].

Yuqorida ayтиб о'тганидек, elektron yo'llanma olish axborot tizimi orqali talabgorlar ta'lim muassasasiga bormasdan turib hujjat topshirishlari mumkin bo'ladi. Bu o'z navbatida, shaffoflikni ta'minlab beradi. Elektron yo'llanma olish axborot tizimi orqali budget hisobidan malakasini oshirmoqchi bo'lgan tinglovchini hujjat topshirish jarayonidagi o'rtacha sarf-xarajatlarini Samarqand viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida ko'rib chiqamiz.

#### 4.1-jadval.

Iqtisodiy samaradorlik

Viloyat	Tinglov-chilar soni (ta)	Yo'l xarajat-lari (so'm)	Yotoqxo-na xarajati (so'm)	Ovqat-lanish xaraja-ti (so'm)	Jami xara-jatlar (so'm)	Umumiy xarajatlar (mln)
Samarqand viloyati	628	140 ming	100 ming	30 ming	270 ming	169 560 mln
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1714	300 ming	100 ming	30 ming	430 ming	737 020 mln

4.1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, agar Samarqand viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasidan budget hisobida malakasini oshirmoqchi bo'lgan tinglovchini Toshkent shahriga kelmasdan turib, onlayn hujjat topshirib, elektron yo'llanma olganlarida bir kishi uchun Samarqand viloyati misoli 270 ming so'm tejaladi, Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida esa 430 ming so'm tejaladi.

Agar umumiy hisobda ko'radigan bo'lsak, Samarqand viloyati misolida umumiy tinglovchilar soni bo'yicha 169 mln so'm, Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida esa 737 mln so'm tejalishiga olib kelishi mumkin.

